

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TARIX FANINI O'QITISHDA  
O'YINLI  
TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH**

*(O'quv-uslubiy qo'llanma)*

**TOSHKENT - 2018**

**Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar:**

F.Axmedshina Jizzax davlat pedagogika instituti, Tarix o‘qitish metodikasi kafedrasi professori t.f.d., F.Aqchayev Tarix o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Mas’ul muharrir:**

**A. Amanlayev**

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar:**

**R.Yarmatov**

Jizzax davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti dekani pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

**B.Mirkomilov**

Tarix fanlari nomzodi, Jizzax viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti

**«Tarix fanini o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish »**

Tuz.: F.Axmedshina; F.Aqchayev mas’ul muharrir: A. Amanlayev – Tashkent: 2018. 92-b.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmada tarix fanini o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, aqliy va intellektual mashg‘ulotlarni o‘tkazish loyihalari o‘z ifodasini topgan. Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari tarix fani o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma institut ilmiy kengashining 2018 yil «28» apreldagi № 5-soni yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

Har bir davlatning kelajagi va uning ravnaqi dastavval ilm-fan taraqqiyoti hamda ta’lim-tarbiyaning rivojlanishi va takomillashishi bilan belgilanadi. Shu bois O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardanoq ilm-fan, ta’lim-tarbiya va kasb-hunar o‘rgatish hamda sifatli kadrlar tayyorlash masalalariga davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishilaridan biri sifatida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, har bir ta’lim oluvchilarda chuqur va mustahkam bilim, teran fikr, yuksak ma’naviyat va madaniyat, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni tarkib toptirishga e’tibor kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri – bularning barchasi, avvalombor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz”<sup>1</sup>, deb ta’kidlaganidek, ushbu buyuk maqsadga erishishda asosiy e’tibor yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalashga qaratilganligi milliy an’analarimiz, mentalitetimizning o‘ziga xos ifodalanishini e’tiborga olib islohotlar olib borish, dolzarb vazifalardan biri ekanligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’lim va fan sohasini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash masalasiga hozirgi kunda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelmoqda. Respublikamizdagи maktabgacha, umumiy-o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalariga asosiy pedagogik kadrlar va mutaxassislarni tayyorlab beradigan oliy ta’lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, soha xodimlarini moddiy qo‘llab-

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008.

quvvatlash, OTMlarda o‘qitish sifati va mazmunini yangilash borasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib, sohaga oid islohotlar keng ko‘lamda amalgalashmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-ton Farmoni<sup>2</sup>ning to‘rtinchisi yo‘nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishning 4-bandisi “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” deb nomlanganligi, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-2909-tonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-iyuldagagi № 515-tonli Qarori, “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27-iyuldagagi № PQ 3151-tonli Qarori va “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 9-avgustdagagi № PQ 3183-tonli Qarorlarini qabul qilinishi ham bejiz emas, albatta.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvarda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili”da amalgalashmoqda oid Davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-tonli Farmoni ham e’lon qilindi. Ushbu Davlat Dasturida ham mamlakatimizda oily ta’lim tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Davlat Dasturining 4-bo‘limi “Ijtimoiy sohani

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-ton Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-ton.

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlanib, ushbu bo‘limda malaka oshirish va qayta tayyorlash, “Fan to‘g‘risida”gi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlarni ishlab chiqish, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish (2018-yil 20-iyul) nazarda tutilgan. Ushbu dasturda keltirilgan masalalardan ham ko‘rinadiki, mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim sohasini ayniqsa, Oliy ta’lim sohasini rivojlantirish masalalari bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Jumladan, Prezidentimizning 2017- yil 20- apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorida ham “ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish..., yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash...,” 3 masalalariga alohida etibor qaratilgan.

Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunidan kelib chiqqan holda bugun ta’lim muassasalari oldiga zamon talablariga to‘la javob bera oladigan, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da aks etgan vazifalarni amalga oshirish respublikamizda faoliyat olib borayotgan ta’lim xodimlari, xususan, Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari zimmasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o‘quvchilarni o‘qitishga yangicha yondashish, o‘qituvchilarni o‘z kasbiga va ta’lim oluvchilarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari hisoblangan interfaol

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarori.

uslublar, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish - dars jarayonidagi pedagogik mahoratni, bo‘lajak o‘qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tarbiyachining ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarini tashkil etishi va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvorni va hissiyotini jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi.

Shu o‘rinda tarix fanini o‘qitishda ham ilg‘or xorijiy tajribalardan biri bo‘lgan o‘yinli texnologiyalardan foydalanish va undan kutiladigan natija ham bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda mazkur fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma’lumki, o‘yin turli ta’limiy maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular o‘quv, aqliy, tarbiyaviy va faoliyatni rivojlantiruvchi maqsadlarda qo‘llaniladi. Uning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlik, jamoaga kirishib keta olishni rivojlantirishda ko‘rinadi. Ta’lim jarayonida foydalaniladigan o‘yinlar, albatta, darsda hal qilinadigan aniq o‘quv tarbiyaviy vazifalarga moslanishi kerak. Shuning uchun ham o‘yin avvaldan rejalashtiriladi, uning dars tuzilmasidagi o‘rni mukammal o‘ylab chiqiladi, o‘tkazish shakli belgilab, olinadi va shu asosda ular tayyorланади. O‘yin o‘tkazilish shakllari va usullari bilan ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Tarix o‘qitish jarayoniga aynan mos keluvchi aqliy va intelektual o‘yinlar dars usullarini cheksiz takrorlash va o‘zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkonini beradi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda uning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonи yaratiladi. Aqliy o‘yinlar o‘qitish sifatiga va mavzuni qiziqarli, tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘quvchilar g‘olib

chiqish maqsadida berilgan har bir topshiriqni astoydil bajaradilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish ortib boradi. Aqliy o‘yinlar darsning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Shuningdek, mazkur usul ta’limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va ta’lim oluvchilar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini o‘quvchilarning o‘ylab olishiga va ularni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yinlar qoidalarini o‘quvchilarning o‘zlarini bajarishlariga imkon beradi. Shuning uchun ham barcha o‘quvchilar o‘yin vaqtida qiziqish bilan harakat qilishadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, aqliy va intellektual o‘yinlar hamjihatlik, intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g‘alaba qozonishga ishtiyoq bilan bog‘liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. Aqliy o‘yinlar jarayonida o‘quvchilarda uyushqoqlik, vaqtini tejay bilish xislatlari tarbiyalanishi bilan bir qatorda tarix fanini o‘qitish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarilishiga zamin yaratadi:

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da aks etgan vazifalarni amalgalashish;
- didaktika nazariyasi bilan ta’lim amaliyotining uzviy aloqasini ta’minalash;
- talabalarni ta’lim - tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatish orqali ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chиqa olish va taqdimot darslarini yuqori saviyada o‘tkaza olishga o‘rgatish;
- ta’lim oluvchilarda tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan nazariy va uslubiy bilimlarni shakllantirish, ko‘nikmalarini tarkib toptirish;
- ta’lim oluvchilarning pedagogik faoliyatga o‘z tayyorgarligini tahlil qilishga o‘rgatish, tahliliy-tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- tarix fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dars ishlannalarini loyihalash ko‘nikmalarini tarkib toptirish;

- tarix fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologoyalar va metodlarni samaradorlik va kafolatlangan natijaga erishishtirish kabilardir.

Yuqorida ta’kidlangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmunida aks etgan tarix fanini o‘qitilishiga qo‘yilgan zamonaviy talablardan kelib chiqib, tuzuvchilar tomonidan ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma tayyorlandi. Qo‘llanmani tayyorlashda Respublikamizning yetakchi uslubchi-pedagog olimlari va professor-o‘qituvchilari J.Yo‘ldoshev, R.Ishmuhamedov, N.N.Azizzxo‘jayeva, L.Golish, A.Abduqodirov, S.Usmonov, G.Fuzailova, M.G‘aniyeva, D.Fayzullayev, E.Jumayev, D.Ro‘ziyevalarning pedagogik texnologiyalarga oid kitob va monografiyalari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari hamda ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalari muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qildi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni keyingi ishlarimizda, albatta, inobatga olamiz.

## **O‘YINLI TEXNOLOGIYA TUSHUNCHASI, TURLARI, MAQSAD VA VAZIFALARI.**

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatni tashkil etadi. O‘yinli texnologiyalar bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, o‘yin mehnat va o‘qish bilan birgalikdagi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

Dastlab “o‘yin” tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi. O‘yin- kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining ta’lim oluvchilar tomonidan imitatxiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli sanaladi.

O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N.O‘znadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S.Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

A.N.Leontev o‘yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi.

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;

Tadqiqotchilar o‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A. Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo‘llanadi.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga - «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektda o‘yinga faoliyat, jarayon va o‘qitish metodi sifatida qaraydilar.

O‘yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o‘z imkoniyatlarini to‘la amalga oshiradi. O‘yinli faoliyatni motivatsiyalash o‘yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o‘zini namoyon qila olishi, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o‘yin tuzilmasi (G.K.Selevko ta’biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘ynash uchun olingan rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo‘lgan o‘yin harakatlari;
- predmetlarni, ya’ni haqiqiy narsalarni shartli, o‘yin narsalari o‘rnida qo‘llash;
- o‘yinda ishtirok etuvchilarning real o‘zaro munosabatlari;
- o‘yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) - ijro sohasi.

O‘yindan tushunchalar, mavzu va hatto o‘quv predmeti bo‘limini o‘zlashtirishda o‘qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniadi.

O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi. O‘yinlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo‘llanadi.

O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatini motivatsiyalashni

rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, extiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar «o‘yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K.Selevko tomonidan pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yunalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o‘quv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Pedagogik o‘yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o‘yin metodikasi, soha xususiyati, o‘yin muhiti bo‘yicha tasnif qilinadi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega bo‘lgan quyidagi o‘yinli texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda:

**Amaliy o‘yinlar.** Ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan amaliy o‘yinlar o‘z-o‘zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko‘p holatlarda “didaktik va pedagogik o‘yinlar” deb yuritiladi.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o‘yin subyekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari - mehnat, o‘qish bilan birga o‘yin ham uning shakllanlanishi va

rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar vositasida katta avlod tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil o‘zatib kelingan.

O‘yin shaxsnинг tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta’lim berish xususiyatlari ega. Mayjud xususiyatlari tufayli o‘yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bevosita o‘yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma’naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Agarda jismoniy xatti-harakatni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat‘iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi.

O‘yin inson hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, xulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqisodiy, harbiy kasbiy, sport va maishiy xordiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi:

-Tushuncha, mavzu va aloxida bo‘lim mohiyatini o‘zlashtirishda alohida texnologiya sifatida;

-Pedagogik texnologiyalarning elementi sifatida;

-O‘quv mashguloti shakli yoki uning bir qismi sifatida;

-Sinf (auditoriya)dan tashqari ishlardan biri (“Zakovat”, “Bilimdon”, “Tarix fani bilimdoni”, “Bellashuv” va b.) sifatida.

O‘yinning mohiyati va tuzilishi ma’lum ko‘nikma, malaka, qobiliyat va sifatlarning har bir ishtirokchida butun o‘yin davomida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida o‘yin

texnologiyalaridan foydalanishda o'qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyida aniq ifodalay olishi zarur.

O'yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, o'zining hayotda o'rnini belgilash, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishdan iborat asosiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini yaratadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi hamda o'yin jarayonida shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

O'quv faoliyatining asosiy motivi - bu o'quv-bilish motivi bo'lsa, o'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa ishtirokchida o'zi tanlangan va asoslarini o'zlashtirayotgan kasbga bo'lgan qiziqlishi sanaladi. Tinglovchi o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy jihatdan qoniqa olishi lozim. Bu vazifani hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalar, shuningdek, tinglovchilarning ijodiy qobiliyati va kreativ tafakkurini o'stiradi.

**Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar** o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yinli texnologiyalar - ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biridir.

O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, xodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (m: ta'lim oluvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa a'zolari, ta'lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarining vakili va b.) sifatida turli rollarni bajarish ishtirokchilarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.

- didaktik maqsad tinglovchilar oldiga o'yinli topshiriq

shaklida qo‘yiladi;

-o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi;

-didaktik o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalilanildi;

-o‘quv faoliyatida didaktik vazifani o‘yin vazifasiga aylantiruvchi musobaqa elementi qullaniladi;

-muvaffaqiyatli bajarilgan didaktik topshiriq o'yin natijasi sanaladi

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilganligi bilan belgilanadi. Aksariyat pedagogik o'yinlar o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi (1-jadval).

Har qanday o‘yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o‘yinlar ham o‘zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo‘ladi.

Pedagogik o‘yinlar o‘yin uslubiga ko‘ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo‘yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitatsion, dramalashtirilgan o‘yinlar. Oliy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o‘yinlar o‘z mazmuniga ko‘ra ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma'lum o‘quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo‘ladi, turli vaziyatlar immitatsiya qilinadi. Ya’ni, Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimida qo‘llaniladigan ishbilarmonlik o‘yinlari pedagogik o‘yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Muhimi pedagogik maqsadlarda qo‘llaniladigan o‘yinli texnologiyalarining asosini tinglovchilarni faollik va tezkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirish, mustahkamlash, tinglovchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy kasbiy tayyoragarlik ko'nikma, malakalarini shakllantirish kabi masalalarni yechishga qaratiladi. Ular yordamida tinglovchilar turli holatlardan o'quv materialini tushunish, uning negizida ma'lum ko'nikma, malaka va sifatni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ayni o‘rinda o‘yin metodikasiga ko‘ra guruhlangan o‘yin texnologiyalarining mohiyati xususida so‘z yuritiladi:

**1. Didaktik o‘yinlar** – o‘rganilayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o‘yinlar ishtirokchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o‘qish ko‘nikmalarini faol o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o‘yinlar ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagи turli psixologik zo‘riqishlarni kamaytiradi.

**2. Syujetli o‘yinlar** - pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar sanaladi. Bu kabi o‘yinlar odatda pedagogik muammolarning yechimini izlash, ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etish, shaxsni qayta tarbiyalash maqsadida qo‘llaniladi.

**3. Rolli o‘yinlar** - ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar, ularda rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi. Rolli va ishbilarmonlik o‘yinlari ishtirokchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma-malakalarini hosil qilishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayoni ishtirokchilari (m: talabalar, ota-onalar, pedagogik jamoa a’zolari, ta’lim muassasalarining rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlarning vakillari va b.) sifatida turli rollarni bajarish pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratib, ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

**4. Ishbilarmonlik o‘yinlari** - ma’lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona uyushtirishga doir ko‘nikma, malaka hamda sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar. Bu turdagи o‘yinlar ta’lim oluvchilarda aniq faoliyat yo‘nalishida zarur BKM va sifatlarni

shakllantirish yoki rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi. Shu jihatdan ishbilarmonlik o‘yinlari ishlab chiqarish jarayoni, kasbiy faoliyatining modellashtirilishini anglatadi. Ishbilarmonlik o‘yini tinglovchilarda kasbiy sifatlarni hosil qilish bilan birga shaxsiy sifatlarni ham tarbiyalaydi, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

**5. Imitatsion o‘yinlar** - ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida tinglovchilarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar. Bu turdagи o‘yinlar ssenariyasi, syujetidan tashqari, imitatsiya jarayon, obyektlarning tarkibiy tuzilmasi va ahamiyatini to‘la ochib berish maqsadida modellashtiriladi. Imitatsion o‘yinlar jarayonida ta’lim oluvchilar muayyan operatsiyalarni, m: masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**6. Dramatik o‘yinlar** (psixologik va ijtimoiy dramalar) - psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘yinlar bo‘lib, ular tashkil etilishi, metodik xususiyatlariغا ko‘ra rolli va ishbilarmonlik o‘yinlariga yaqin. Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi dramatik o‘yinlar jamoadagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo‘lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlikni qaror toptirish, o‘zgalarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash, og‘ir vaziyatlarga duch kelgan subyektlarga yordam ko‘rsatish hamda samarali, unumli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Barcha o‘yinlarda bo‘lgani kabi pedagogik o‘yinlar jarayonida ham ishtirokchilar faol holatda bo‘ladi, sheriklari bilan o‘zaro munosabatga kirishadi, Shuningdek, o‘z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o‘rnatish orqali o‘zini o‘zi o‘rganadi.

Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Jumladan:

- o‘yin ssenariysini tayyorlash;
- yuriqnomalar tuzish;

- auditoriyani o‘yin mohiyatiga muvofiq jihozlash  
Ssenariy va uning mohiyati muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ssenariygina tegishli ta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish imkoniyatini ta’minlaydi. O‘qituvchilar o‘yin ssenariylarini tayyorlashga alohida e’tibor qaratishlari, ssenariyni tayyorlash malakasiga ega bo‘lishlari zarur.

Pedagogik xarakterdagи o‘yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- o‘quv maqsadi;
- o‘yinning vazifasi;
- o‘rganiladigan muammo tafsiloti;
- o‘yin vaziyatining tafsiloti;
- ishtirokchilarning tasnifi

Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari qo‘llash quyidagilarga asoslanadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammoli vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o‘yin reglamentini o‘rnatish;
- materiallar, yuriqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar tuplamini tarqatish;
- maslahat berish.

O‘yin texnologiyalarini qo‘llashda rollar qur’a tashlash yo‘li bilan taqsimlanadi. Bunda rollar nomi yozilgan kichik qog‘ozchalardan foydalanish mumkin. Rollarning ishtirokchilar o‘rtasida qur’a asosida taqsimlanishi kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan noroziliklarning oldini oladi. O‘yin jarayonida belgilangan vaqt (reglament)ga, muloqot odobiga rioya etish, faollik ko‘rsatish hamda o‘yinni oxirigacha davom ettirish kutilgan natijani kafolatlaydi. Shuningdek, quyidagi omillar pedagogik maqsadlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi:

- o‘yin ssenariysining puxta tayyorlanganligi;

- o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi;
- o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda (8-10 tagacha) ifodalaniши;
- o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi;
- ishtirokchilarining o‘yin jarayoniga qiziqishlari;
- rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi;
- jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi;
- ishtirokchilarining bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari;
- har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni his etishi;
- barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi

O‘yin jarayonida hech kim xalaqit qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat bo‘lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarining harakatlarini tuzatishi, ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi mumkin.

Har qanday jarayon singari o‘yin yakunida uning tashkil etilishi, o‘tkazilishi yuzasidan muhokama o‘tkazilishi zarur. Muhokama chog‘ida o‘yin ishtirokchilarini, tomoshabin (jamoaning o‘yinda ishtirok etmagan a’zolari), ekspertlar o‘yining tashkil etilishi va o‘tkazilishi yuzasidan o‘z fikr- mulohazalari, takliflarini bildiradi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqrizchilarni chiqishlari;
- fikrlar almashinuvi;
- ishtirokchilarining o‘z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
- o‘yinga yakun yasash

Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi umuman boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan.

Tadbirkorlik o‘yinlarini mashxur psixologlar L.S.Vigodskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o‘yinlari o‘z xarakteriga ko‘ra insonning

shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o‘yinlari bilish va o‘qitishning vositasi sifatida XX asrning 20- yillarda rivojlandi. Tadbirkorlik o‘yinlariga taqlidiy (imitatsion) o‘yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo‘ldi. Taqlidiy o‘yinlarga o‘z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o‘yinlar asos bo‘lgan.

A.A.Verbitskiy tadbirkorlik o‘yinlariga o‘qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o‘yinlarida mashq qilish faoliyatini va bo‘lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun’iy va tabiiy tizim sifatida o‘zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o‘yinlarini kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya’ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A.Verbitskiy oliy o‘quv yurtining vazifasini bunday o‘qitishda, ya’ni talabani bir yetakchi faoliyat tipi (o‘quv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan (o‘zlashtirilgan) holda o‘tkazishni ta’minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o‘yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o‘quv materiali mazmunining izchilligi;
- o‘yinli o‘quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyatini tarkibiy qismlarini yaratish;
- o‘quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug‘dirish va ularni amalda qo‘llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o‘yining ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig‘indisi;
- o‘yinni olib boruvchi o‘qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o‘z xattiharakatlarini tashkil etish va boshqarishga o‘tishini ta’minlashi.

G.F.Arbenev va boshqalarning tadqiqotlarida tadbirkorlik o‘yini mutaxassisning yevristik tafakkurini rivojlantirishning

samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o‘yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat’iy nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi. O‘yin imitatsiyasiga taalluqli bo‘lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo‘lishi lozim;
- mustaqil tashkil etishga yo‘nalganligi;
- o‘qitishning muammoliligi;
- metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta’minlanganligi.

Tashkiliy o‘yin aslida tobora takomillashib boruvchi o‘qitishni ta’minlashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining to‘liq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya’ni qandaydir vaziyat yechimiga bo‘lgan yondashuvdan topilgan yechimning umumlashtirilgan bahosi o‘tiladi.

A.A.Tyukov o‘yin davriyigining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

- vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o‘yinning asosiy syujet mavzusi bo‘yicha o‘yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi;
- amaliy guruhlarning ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;
- o‘yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;
- yechimni tashkil etish bosqichi.

Ya.S.Ginzburg va N.M.Koryak o‘yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- guruh xarakteri;
- yaratuvchilik, shartlilik;
- ramziylik, utilitar bo‘limaslik xarakteri;
- belgisizlik (mavhumlik), tarqaluvchanlik xususiyati

Tadbirkorlik o‘yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;
- rollarni taqsimlash;

- o‘yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo‘yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- nazariy bilimlarini amalda qo‘llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

I.Olloyorov tadbirkorlik o‘yinlariga o‘quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o‘yinlar o‘quv jarayonida o‘z o‘rniga ega va o‘quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o‘rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog‘liq bo‘lgan, aniq belgilangan didaktik funksiyalarini bajarishini ta’kidlaydi.

Tadbirkorlik o‘yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- bilimlarni mustahkamlash va qo‘llash;
- o‘quv jarayonida bulg‘usi mutaxassisning faoliyati faqat o‘rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lishi;
  - talabalar o‘quv-bilish faoliyatining bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib borishi.

Tadbirkorlik o‘yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O‘quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig‘i shaklida qo‘yish:

- bo‘lg‘usi tadbirkorlik o‘yinining maqsadini aniqlab olish;
- muammoli vaziyatni anglab yetish;
- talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o‘yini haqida dastlabki ma’lumotlar berish;

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- talabalarning o‘qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;
- bajarilishi lozim bo‘lgan ish to‘g‘risida talabalarga yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatish;
- olingan bilim, o‘zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va

ishlash metodlarini umumlashtirish;

- o‘z-o‘zini nazorat qilish;
- Tadbirkorlik o‘yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

3. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

- ularga avval ma’lum bo‘lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;
- avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o‘z ijodi uchun zarur bo‘lgan yangi metodlarni qidirish;
- rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.

4. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o‘yinlaridagi o‘z mavqeini aniqlash.

5. O‘zlaridagi bor bilim, malaka va ko‘nikmalar asosida reja bo‘yicha ishlarni bajarish:

- yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
- o‘z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish;
- qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;
- belgilangan rejalarini (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;
- yakuniy natijalarini tekshirib ko‘rish va taxlil qilish.

6. Talabalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko‘nikmalarini nazorat qilish va joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.

7. Talabalarning tadbirkorlik o‘yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko‘rish.

8. Talabalarga tadbirkorlik o‘yinlarini o‘tkazish va unda qatnashish bo‘yicha yo‘l – yo‘riqlar berish, ularni rol o‘ynash bo‘yicha taqsim qilish, zarurat tug‘ilganda har biriga qo‘srimcha yo‘l-yo‘riqlar berish.

9. Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo‘yicha talabalarning tadbirkorlik o‘yinlari.


10. O‘yin ishtirokchilariga joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.

11. O‘yin ishtirokchilarining o‘yin davomida o‘zi o‘ynagan rollariga baho berishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi.

12. Tadbirkorlik o‘yini natijalarini muhokama qilish va talabaning o‘quv -o‘yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o‘yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o‘tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalaniladi.


### **1-jadval. Pedagogik o‘yinlarning asosiy belgilari**




## **2-jadval. Ishbilarmon o‘yining texnologik sxemasi**

| <b>I. TAYYORLASH BOSQICHI</b>                      |   |
|--|---|
| 1.1.<br>O‘yinni ishlab<br>chiqish                  | Ssenariyani ishlab chiqish              |
|  | Yo‘riqnomा mazmunini ishlab chiqish     |
|  | Moddiy ta’minotni tayyorlash            |
|  | Guruhni shakllantirish                  |
| 1.2.<br>O‘yinga<br>kirishish                       | Rollar taqismoti                        |
|  | Muammo va maqsadlarni vujuga keltirish  |
|  | Shartlar, qoidalar, reglament o‘rnatish |
|  | Maslahatlar berish                      |
| <b>II. O‘TKAZISH BOSQICHI</b>                      |   |
| 2.1.<br>Topshiriq<br>ustida guruh<br>bilan ishlash | Manbalar bilan ishlash                  |
|  | Trening                                 |
|  | Miyalar hujumi                          |
|  | O‘yin texniki bilash ishlash            |
| 2.2.<br>Guruhalaro<br>munozara                     | Guruhlarning chiqishi                   |
|  | Natijalarni himoya qilish               |
|  | Munozara qoidasi                        |
|  | Taqrizchilar (ekspert) ishi             |
| <b>III. TAHLIL BOSQICHI</b>                        |   |
| 3.1.   | O‘yindan chiqarish                      |
| 3.2.   | Tahlil                                  |
| 3.3.   | Ishni baholash va o‘ziga baho berish    |
| 3.4.   | Xulosa va umumlashtirish                |
| 3.5.   | Tavsiyalar                              |

### 3.1.-jadval. Didaktik o`yin texnologiyasi



### 3.2.-jadval. Didaktik o`yin texnologiyasi




**4-jadval. Didaktik o‘yinli mashg`ulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari**


| <b>Didaktik o‘yinli mashg‘ul otlar</b> | <b>Mavzu mazmuniga ko‘ra mazkur mashg‘ulotdan foydalanish</b>   | <b>Mashg‘ulotla rning didaktik funksiyalari</b>  | <b>Talaba-ning faoliyati</b>                                     |
|--|---|--|--|
| Sujetli-rolli                          | Fanning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni yoritish, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish, tabiatdagi va kundalik hayotdagi muammo-larni hal etish imkoniyati bo‘lganda | Kundalik hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni , tabiat obyektlari va tabiiy hodisalar o‘rtasidagi aloqalar va bog‘lanishlarni adabiy-badiiy tarzda yoritish | Muayyan rollarni bajarish orqali bilim va ko‘nikmalar ni egallah |
| Ijodiy o‘yin                           | Avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati bo‘lganda  | Muammoli vaziyatlarni avval o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash orqali hal etish  | Ijodiy izlanish orqali yangi mavzuni o‘zlash-tiradi              |
| Ishbilarm onlar<br>O‘yini Auksion      | Turli obyektlarga tavsif berish, ularni taqqoslash imkoniyati bo‘lganda   | Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida talabalar dunyoqarashini   | Auksionda ishtirok etish orqali yangi mavzuni o‘zlashtiradi      |

|                     |  |  |  |
|---------------------|--|--|--|
|                     |  | kengaytirish,<br>kasbga<br>yo‘naltirish  |  |
| Anjuman             | Fanning turli<br>sohalariga oid<br>bilimlar<br>mujassamlashgan<br>va qo‘lga kiritilgan<br>yutuqlarni yoritish,<br>fanlararo<br>bog‘lanishlarni<br>amalga oshirish<br>imkoniyati<br>bo‘lganda | Qo‘srimcha<br>va mahalliy<br>materiallar<br>bilan<br>tanishtirish,<br>ilmiy, ilmiy-<br>ommabop<br>adabiyotlar<br>bilan mustaqil<br>ishlash,<br>yoshlarni<br>mustaqil<br>hayotga<br>tayyorlash,<br>kasbga<br>yo‘naltirish | «Olimlar»<br>maqomini<br>olib<br>muayyan<br>mavzularda<br>izlanishlar<br>olib boradi |
| Matbuot<br>anjumani | Fanning turli<br>sohalarini qamrab<br>olgan, talabalarning<br>avval o‘zlashtirgan<br>bilimlaridan<br>foydanish lozim<br>bo‘lganda  | Qo‘srimcha<br>va mahalliy<br>materiallar<br>bilan<br>tanishtirish,<br>darslik, ilmiy-<br>ommabop<br>adabiyotlar<br>bilan mustaqil<br>ishlash   | «Olimlar»<br>va<br>«Muxbirlar<br>» maqomini<br>olib<br>mavzuni<br>o‘zlashtiradi      |

## 5- jadval. Mashhur pedagog G.K.Selevko bo‘yicha pedagogik o‘yinlarning tasnifi



## 6- jadval. Pedagogik maqsatlarda qo'llaniladigan o'yinlar texnologiyasi



## **O'YINLI TEXNOLOGIYALARNI AMALGA OSHIRISHDA GURUHLARNI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA KO'RSATMALAR**

**Guruhlarni shakllantirish tamoyillari.** Kichik guruhlarda ish olib borish guruhlarda ishslash - bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishslashda (2 tadan - 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi, topshiriq - natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

Guruhli treningda qo'llaniladigan asosiy uslublardan biri kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdir. Ushbu uslubning psixologik jihatdan manzurligi, notanish masalalarni ko'rib chiqib, qaror qabul qilishda har bir ishtirokchi, guruh ishining yaxshi natijasi uchun ma'suliyatni sezgan holda ishga kirishadilar.

Ushbu uslubning ustunligi kichik guruhlarda ishlaganda kamgap ishtirokchilar o'zlarini yaxshiroq his qiladilar. Aynan shunday odamlar uchun bu guruhlarda ishslash, o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishda juda qo'l keladi va kelajakda boshqa muhokamalarda o'z fikrlarini bildirib, ular faol ishtirok etadilar va natijada uyatchan va kamgap ishtirokchilar ko'pchilik fikriga qo'shilmasdan o'z fikrlarini o'rta ga tashlashga harakat qiladilar.

Guruhlarning eng qulay soni:

2-3 kishidan iborat guruh - eng kichik guruh bo'lib, g'oyalarni tanlash va rivojlantirish imkoniyatlarini chegaralaydi;

4-5 kishidan iborat guruh — yetarli darajadagi muvaffaqiyatli guruh;

5- 6 kishidan iborat guruh - eng yaxshi va samarali natijaga erishuvchi guruh;

6-7 kishidan iborat guruh - yetarli darajada muvaffaqiyatli, lekin kattaroq bo'lgan guruh;

8 va 9 kishidan tashkil topgan guruh - guruh kichik guruhlarga bo'lina boshlaydi, yoki qarama-qarshi fikrli guruhlar tashkil topadi. Bunday vaziyatda qoniqarli natijaga erishish mumkin, lekin bu narsa ko'p vaqt talab qiladi.

10 va undan ortiq kishidan tashkil topgan guruh - qoniqarsiz guruh. Bu sonli guruhlarda ishtirokchilar orasida ziddiyatlar hosil bo'lib, guruh ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Kichik guruhlarda ishlash qoidasi:**

Kichik guruhlarda ishlashda o'quvchilar mashg'ulotlarda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladilar, yetakchi rollarni bajaradilar (bahsni olib boradilar yoki guruhning ishini namoyish qiladilar, guruh qarorini spiker sifatida barchaga yetkazib beradilar), bir-birlari bilan tajriba almashadilar, turli fikrlarni qadrlashni o'rganadilar.

Barcha muhokamada qatnashishi va o'z fikrini bildirishi, bir-biriga yordam berishi uchun kichik guruhlarda ishlash usuli qo'llaniladi. Guruhlar 5-7 kishidan iborat bo'lib, jamoa bo'lib ishlashni o'rganish uchun vaqt-vaqt bilan guruhlar a'zolari tarkibi o'zgartirib turiladi. Vaqtдан maqsadli foydalanish uchun kichik guruhlarda ishlash qoidalariга va tarkibiga rioya etish zarur.

### **Guruhlarni shakllantirishda quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:**

#### **“Tanla...” ( 5 daqiqa).**

Agar siz guruhni 4 guruhchaga bo'lishni istasangiz 4 ta ko'ngillini, 5 ga bo'lishni xohlasangiz - 5 ta ko'ngillini chaqirasiz.

O'qituvchi ko'ngillilarga dars mashg'ulotining mavzusini yoki o'tayotgan fanining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib savol beradi: misol uchun tarix fanidan “Siz Misr ehromlarini tomosha qilish uchun ushbu guruhdan kim bilan birga borgan bo'lardingiz?”. Ko'ngillilar o'z guruhidan bir kishini tanlaydi. Tanlangan ishtirokchilardan “Ehromlarga yetib olish uchun to'rtta alohida-alohida kemalarda ikki kishilikdan o'rinn qolgan, ushbu kemalarga siz kim bilan chiqardingiz?” deb so'raladi. Qolgan savollarni o'qituvchining o'zi tanlashi mumkin, taxminan: “Nil vodiysini kim bilan birga aylanardingiz?”. Agar bir necha kishi tanlanmay qolsa, ularga ekspertlik qilishni yoki o'zlarini alohida guruh tuzishlarini taklif qiling.

## **Ranglar (5daqiqa).**

*Kerakli vositalar:* Ishtirokchilar soniga qarab rangli qog'ozlar (qizil, sariq, yashil) kerak. Mashg'ulotgacha 2 yoki undan ko'prok jetoncha tayyorlab qo'yiladi. Mashg'ulotlardan oldin jetonchalar aralashtiriladi, har bir ishtirokchiga beriladi. Guruhni bo'lish zarur bo'lganda, ishtirokchilarga faqat ma'lum qilish kerak, bir xil rangli jetonchalar - bu 1-guruhsda, 2 - xil rangli jetonchalar - bu 2 - guruhsda.

## **"ZAKOVAT" INTELLEKTUAL O'YINI**

Bu o'yinni o'tkazishda dastlab auditoriyani o'yinga moslashtirish lozim bo'ladi. O'yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o'quvchilar o'yinda ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, o'yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo'ladi. Qolgan o'quvchilar esa o'yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O'yin uchun mo'ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo'yiladi. Guruh sardori savolni olib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi savolni mohiyatiga qarab o'qib eshittiradi yoki "Zakovat sandiqchasi" olib chiqilishini aytadi yoki ekranda namoyish qilishni so'raydi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o'yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o'yinni asosan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumiyligining o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'tkazish tavsiya etiladi.

Zakovat o'yinlarida asosan, ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va alohida mavzular mazmun-mohiyatini aks ettiradigan mantiqiy, ta'limiy savollar tuzilishiga diqqat qaratiladi.

Quyida biz Oliy ta'lim muassasalarining "Tarix o'qitish metodikasi" yo'nalishlari o'quv rejasiga kiritilgan "Jahon tarixi" (Qadimgi dunyo tarixi) fani doirasida tuzilgan "Zakovat o'yini" savollarini taqdim etamiz.

### **Qadimgi Misr**

**1. Savol** Misrda Oddiy xalq o'z sadoqatini qanday ko'rsatgan?

**Javob:** Fir'avnlarining oyoq izlarini o'pgan.

**2. Savol:** Qaysi mashhur firavnning 160 nafar farzandi bo'lgan?

**Javob:** Ramzes II ning

**3.** Misr fir'avnlaridan biri Amenxotep IV, fir'avnlar ichida biringchi bo'lib, u fikrni inkor qildi. "U xech bir payg'ambar, xukmdor, malika va xaloyiqniki emas, u hammaniki"- degan.

**Savol:** Amenxotep nimani hammaniki deb aytgan?

**Javob:** Quyoshni.

**4.** Qadimgi Misrda Lafu va Dendr ibodatxonalarini boshqa ibodatxonalarga qaraganda Misr dehqonlari tomonidan ancha hurmat va ehtirom qilinar edi.

**Savol:** Bu ibodatxonalar nimasi bilan boshqa ibodatxonaladan farq qilar edi?

**Javob:** Zikkuratlarning joylashganligi tufayli

**5.** Misrda bu so'z "quyosh shu'lesi" degan ma'noni anglatadi, misrliklar shu nomli xudoga ham sig'inishgan.

**Savol:** Bu qanday so'z?

**Javob:** Aton

**6.** Qadimgi Misrda og'ir va xavfli yara toshgan bemorlarni davolamaganlar yoki ongli ta'sir ham ko'rsatmaganlar, balki shunday bir yo'l qo'llaganlar.

**Savol:** Bu qanday yo'l edi?

**Javob:** Pirimalarga kirdizishgan

**7.** Qadimgi Misrda amaldor Paxotep, Padshoga tanish Nafret fir'avn Ramzes II, Amenemhet III, Tutanxamonlarning shunday yaqinlik tamonlari borki bu yaqinlik asrlar davomida ularning nomlarini asarlarda yonma-yon yozilib kelishiga sababchi bo'lgan. Diqqat savol bu qanday yaqinlik?

**Javob:** Bu shaxslarning toshdan yasalgan haykallari bo'lgan.

**8.** Qadimgi Misrda har bir nomlarning alohida ilohiy homiysi bo'lgan. Qadimgi misrliklar o'z yagona davlati va hududi uchun xudolarni qanday usulda tanlashgan?

**Javob:** Qaysi nom hukmdori podsholikga saylansa o'sha nom xudosi umummisr ilohiga aylangan?

**9.** Antik zamonlarda Hind va Gang daryolari faunalari o‘rganilgach Nil daryosining manbasi Hindistondan boshlanadi degan fikrga kelishgan. Nima bu fikrni vujudga kelishiga sabab bo‘lgan?

**Javob:** Timsohlar

**10.** Bu shunday topilmaki, yer yuzida faqat bir davlatda uchraydi, bu topilmaga dastlab hech kim tegina olmagan, bunga qo‘rquv sabab bo‘lgan, uni o‘rgangan dastlabki 12 ta olim rak kasaliga uchrab vafot etishgan?

**Savol:** Bu nima?

**Javob:** Mumyo

### **Qadimgi Mesopotamiya**

**1.** Qadimgi Shumerliklar inson tana a’zolaridan birining kattaligiga qarab, sog’lom va baquvvatligini bilishgan. Bugungi tibbiyot ham buni tasdiqlaydi.

**Savol:** Qaysi tana a’zosi?

**Javob:** qulqoq

**2.** Qadimgi Mesopatamiyada yozuvlar yozishda o‘sha yozuvga talluqli suratlar ham chizishgan. Ular sonlarni yozishda qanday usuldan foydalanishgan?

**Javob:** Chiziqchalar chizishgan

**3.** Podsho Hammurapi tomonidan tayinlangan amaldorlar o‘z kasbiga sadoqati tufayli har doim raqamlarda ishlashga majbur bo‘ldi. Diqqat savol bu qanday amaldorlar.

**Javob:** o‘rmon xo‘jaligini nazorat qiluvchilar.

**4.** Hammurapi qonunlaridan bizga ma’lumki olingan qarz o‘z egasiga qaytarilishi shart edi, lekin shunday bir harakatda qatnashganlar bundan mustasno edi. Diqqat savol bu qanday harakat.

**Javob:** Harbiy harakat

**5.** Sengashit davriga qaraganda Hammurapi davrida Bobilda qimmatchilik yuqori darajada bo‘lgan. Diqqat savol bunga nima sabab bo‘lgan.

**Javob:** Bobilda olib borilgan to‘xtovsiz urushlar.

**6.** Qadimgi Shumer haykaltaroshlari tosh haykallarni yasaganda odamni harakatini qotib turgan holda tasvirlashgan. Lekin

odamning shunday tana azosini jonli holatda tasvirlashga intilgan.  
Bu azoni ko‘pincha toshlardan ishlashgan  
Diqqat savol bu odamning qaysi azosi edi ?

**Javob:** Ko‘z

**7.** Shunday xalqlar bo‘lganki tog‘larni ilohiyashtirishgan, bu esa  
diniy e‘tiqodlarida ham saqlanib qolgan.

Diqqat savol Bu qaysi xalqlar edi ?

**Javob:** Shumerliklar

**8.** Ushbu davlatda tibbiyat qadimdan rivojlangan. Uning alohida  
tibbiyat xudosi bo‘lgan u tamondan tish, bosh, og‘iz boshlig‘i  
kasalliklarini davolovchi 8 ta quyi darjadagi xudollar ham  
yaratilgan.

Diqqat savol Gap qaysi xalq tibbiyoti haqida ketmoqda ?

**Javob:** Bobil tibbiyoti

**9.** Qadimgi Bobilda suvgaga cho‘ktirib o‘ldirish jazosi bo‘lib, bu  
jazo kimlarga nisbatan va qanday jinoyat uchun qo‘llanilgan.

**Javob:** Ayolga nisbatan, xiyonati uchun

**10.** Mesopatamiya janubida undan ko‘p bo‘lgan hatto metall  
o‘rnida ham foydalanishgan. Undan muhr, chiroq va tobut  
yasashgan

Diqqat savol bu nima edi?

**Javob:** Loy

### **Qadimgi Xitoy**

**1.**Qadimgi Xitoyda yilnomalar qaysi podsholik davrida tuzila  
boshlangan?

**Javob :** Lu podsholigi davridan

**2.**Xitoyliklar uchun oq ot muqaddas hisoblangan. Hatto uning  
uchun Xitoyliklar Loyan shahrida “Oq ot” Ibodatxonasini  
qurishgan. Bu ibodatxona hozirgacha saqlanib qolgan.

Diqqat savol Nima uchun Xitoyliklar oq otni muqaddas  
hisoblashadi?

**Javob :** Budda matnlari oq otda olib kelingani uchun

**3.** “Zakovat sandiqchasi”da hamma davrlarda qadrlangan narsa  
bor. U ixtiro qilinganidan buyon Sharq va G‘arb orasidagi  
aloqalarda katta rol o‘ynab keladi.

**Javob:** Ipak.

**4.** “Zakovat sandiqchasi”da butun dunyoga tarqalib ketgan va hozirda ham sevib iste’mol qilinayotgan narsa bor. U nima va qayerdan tarqalgan?

**Javob:** choy, Xitoydan.

**5.** Qadimgi Sharqda o’lgan odamni o‘z uylariga ko‘mgan ekanlar. Bunga sabab nimada edi?

**Javob:** O’lganlarning ruhi oila a’zolarini qo’llab –quvvatlab turishi uchun

**6.** Xitoya dehqonchilikda keng qo’llaniladigan muhim ixtirolarni ko‘rsating

**Javob:** kanallar, shaduflar, to‘g‘onlar, suv omborlari

**7.** Xitoy tarixiga oid “Xan tarixi” asari kimniki?

**Javob:** Gu G‘arbiy Xan

**8.** Qadimgi Xitoya asosiy ta’limotlar qaysilar?

**Javob:** Konfutsiylik, legizm, daoism

**9.** Xan imperiyasining eng gullab yashnagan davri kimning davriga to‘g‘ri keladi?

**Javob:** U DI

**10.** Qadimgi xitoya qaysi fan yuksak darajada rivojlangan?

**Javob:** tibbiyat

### **Qadimgi Hindiston**

**1.** Qadimgi Hindistonga eng oliv jazo ya’ni o’lim jazosidanda daxshatli jazo turi qaysi bo‘lgan?

**Javob** Gulxanga kuydirish, yoqib yuborish, qoziqqa o’tqazish, fil oyoqlari ostiga tashlash, suvga cho‘ktirish.

**2.** Qadimgi Hindiston hududida qachondan boshlab dehqoncholik bilan shug‘ullanib kelingan?

**Javob:** neolit.

**3.** Hindistonning qaysi shahridan ulkan g‘alla ombori topilgan?

**Javob:** Xarappa

**4.** Hindistonning shimoliy-sharqida sug‘orma dehqonchilik sharoitida asosiy ekin qaysi bo‘lgan?

**Javob:** sholi

**5.** Shimoliy Hibdistonda Panjobdan Bengaliyagacha bo‘lgan yerlarni kim birlashtiradi?

**Javob:** Chandragupta

**6.**Shaxzoda Singala qanday laqab olgan?

**Javob:** Yo‘lbars

**7.**Qadimgi Hindistonda ellin va Rim madaniyati ostida qaysi maktab shakllangan?

**Javob:** Gandxara

**8.**G‘arbiy Dekan qaysi davlat markazi bo‘lgan?

**Javob:**Satavaxanlar

**9.**Qadimgi Hindistonda qarz uchun qanday jazo belgilangan?

**Javob:**qullika mahrum etilgan.

**10.** Sirtkharta Gautama yashab tug‘ilgan hudud hozir qaysi davlatga to‘g‘ri keladi?

**Javob:** Nepal.

### **“Zakovat sandiqchasi” savollari**

**1.** “Zakovat sandiqchasi”da shunda narsa borki u tabiiy mahsulot bo‘lib, Aleksandr Makedonskiy uning bilan birinchilardan bo‘lib tanishgan.

**Javob:**neft.

**2.** “Zakovat sandiqchasi”da askar bor. U 2 ming yil avval qaerda jang boshlagan?

**Javob:** shaxmat figurasi, Hindistonda.

**3.** “Zakovat sandiqchasi”da rimliklar ixtiro qilgan qurilish materiali parchasi bor. U nima?

**Javob:** beton.

**4.** Ikki daryo oralig‘ida undan ko‘p bo‘lgan. Uning har xil turlari bo‘lgan. Qurilishda, hatto kemasozlikda ham foydalanishgan.

Diqqat savol gap nima haqida ketmoqda?

**Javob:** Qamish

**5.** “Zakovat sandiqchasi”da nima bor? Ta’rif: Misr firavini Seti 1 Finikiya va Suriyadagi Isnaom, Hamat va Bat-shani shaharlarini bosib olib, u yerlardan qullar, zeb-ziynat va hunarmandchilik buyumlari va Misr uchun muhim bo‘lgan yana bir narsani olib keladi. Diqqat savol bu nima?

**Javob:**kedr yog‘ochi.

**6.** “Zakovat sandiqchasi”da nima bor? Ta’rif: Ibtidoiy davr odamlarida shunday bir qurol bo‘lganki, bu qurol yordamida ular

ovda ham qatnashishgan va dushmanlarni qo‘rqitishgan, qizig‘i shundaki, bu quroldan odamlar hozirda ham foydalanishadi.

**Savol:** bu qanday qurol?

**Javob:** Niqob

7. Men “Zakovat sandiqchasi”daman. Meni qaynatadilar, ezadilar, quritadilar. Men nimaman va qayerdanman?

**Javob:** Xitojlik, qog‘oz.

8. “Zakovat sandiqchasi”dagi yunon aktyorlarining ixtirosi ayollar tomonidan mammuniyat bilan qabul qilingan?

**Javob:** kablok

9. Bu sandiqchada shunday narsa borki, bu narsadan hozirda hamma uyda foydaliladi. Bu narsaning tarixi so‘ngi paleolit davriga borib taqaladi. Yani bu narsa so‘ngi paleolitning madlen davrida kashf etilgan. Bu narsaning dastlabki nusxalari suyakdan yasalgan va uning shakli hozirgacha o‘zgarmagan. Diqqat savol sandiqcha ichida nima bor?

**Javob:** suyak igna.

10. Ingliz faylasufi Frencis Bekon: 4 jihat jahondagi mavjud narsalarini o‘zgartirib, ulkan yangiliklarni boshlab beradi: 1-qog‘oz, 2- kitob bosmasi, 3- porox va sunggisi mana shu sandiqcha ichida joylashgan?

**Javob:** Kompas

**Qadimgi Yunoniston**

1.Birinchi Olimpiya uyinlari qaysi yilda boshlangan, necha kun davom etgan va sportning nechta turlari bo‘yicha bellashganlar?

**Javob:** Er.avv. 776-yilda, 10 kun, 5 tur.

2.Qaysi asarda saqlanib qolgan xotiralarga ko‘ra Krit hukumdori Minos faqat podshoh bo‘lib qolmasdan shu bilan birga Kohin va umuman Xudo nazar qilgan shaxs hisoblanadi ?

**Javob :** Odisseye.

3.Krit arxitektorlari bino shiftlarini saqlash uchun va bezab ko‘rsatish maqsadida qanday ishni amalga oshirishgan ?

**Javob :** Yuqoriga kengayib boruvchi ustunlarni ishlatgan

4.Qadimgi Yunonistonda qaysi san’at turi qishloq xo‘jaligi homisi bo‘lgan xudo Dionis sharafiga o‘tkaziladigan bayramlar

vaqtida ijro etiladi. Xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida vujudga kelgan?

**Javob** : Teatr

5.XIX asirning 70-yillarida arxeologik qazishma ishlarida, ya'ni Yunonistonni o'rghanishda qanday soha paydo bo'ldi ?

**Javob** : Papirologiya

6.Bilamizki, Afina demokratiyasida Ostrakizm siyosati qo'llangan. Er.avv. V asrda ushbu siyosat mashhur bir shaxsga nisbatan ishlatilgan. U shaxs kim edi ?

**Javob** : Femistokl

7.Yunonistoning ikkita hududi hosildor va unumidor bo'lib bu ikki hududni ham bitta davlat o'z tasiriga kiritadi. Diqqat savol bu hududlar va davlatni toping?

**Javob** : Lakonika va Messiniya shaharlari, Sparta davlati

7.Quyosh arbitasidagi eng uzoq sayyora Pluton eng sovuq va eng qorong'u sayyoradir. Bu sayyorani nima uchun Pluton deyishgan ?

**Javob** : Yer osti sultanati xudosi Aid uning Rim varianti Pluton bo'lgan.

8.1939 – yilda K.Kuriniotis va K.Blegen rahbarligidagi grek-amerika ekspeditsiyasi qadimgi Pilos rayonida Peleponesning g'arbiy sohili yaqinida Krit – Miken davriga oid bo'lgan qanday saroy binosini topishdi?

**Javob** : Nestor saroyi

9.Solon quyidagi qonunni qaysi sohalarini rivojlantirish uchun ishlab chiqadi. Agar ota o'z vaqtida o'g'liga biron hunar o'rgatmagan bo'lsa, o'g'il qarib qolgan otasiga yordam berishdan bosh tortishga haqli bo'lgan?

**Javob** : Hunarmandchilik, savdo-sotiq

10.Barchamizga ma'lum Kritda erkak xudo ham juda mashhur bo'lib, u ikki yoqlama bolta shaklidagi xudo tarzida tasvirlangan bu ikki yoqlama bolta shaklidagi xudo Yunon tilida qanday atalgan?

**Javob** : Labris

### **Qadimgi Rim**

1. Miloddan avvalgi 47-yilda Rim Senatiga bir insondan xat keladi. Qani bir yaxshilab o'ylab ko'ringchi o'sha xatda qaysi 3 ta

so‘z yozilgan bo‘lishi mumkin.

**Javob:** Vini Vidi Vichi (Keldim, ko‘rdim, g‘alaba qildim)

**2.** Qadimgi Rimlik legionerlar Misrliklardan yangi jang usulini o‘zlashtirganlar. Bu usul keyinchalik toshbaqa usuli deb atala boshlangan. Diqqat savol bu qanday usul.

**Javob:** Bu usul bostirma hosil qilib mudofaa qilish usuli.

**3.** Nyu-Kasl universiteti tarixchilari Misr malikasi Kleopatrani o‘zun va qirra burunli, notabiyy holda oldinga cho‘zilgan iyakli ayol bo‘lganligini ta’kidlashadi. Savol: ular bunday fikrga kelishiga sabab nima bo‘lgan?

**Javob “Rim tangalarri”**

**4.** Er.avv III asrda Sharqiy O‘rtaer dengizi qirg‘oqlari qaysi ellin davlatiga tegishli edi?

**Javob:** Pergam

**5.** Oktavian Avgust Rimda prinsipiat taqdirini o‘rnatgan hukmdor hisolanadi. Savol: Prinsipiat so‘zning ma’nosi nima?

**Javob:** Bu so‘zning ma’nosi “birinchi kishi”

**6.** Qadimgi Rimda qaysi hukmdor “janob va xudo” unvoniga ega bo‘lgan?

**Javob:** Imperator Avrelio

**7.** Rimda so‘nggi triumf kimlarning ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng o‘tkazilgan?

**Javob:** Vestgotlar ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng.

**8.** IV asrda Shimoliy Afrikada Rimga qarshi tuzilgan Vandal qirolligining poytaxti qayer bo‘lgan?

**Javob:** Karfagen

**9.** Qaysi hukmdor davrida Rim imperiyasi 2 qismga bo‘lingan?

**Javob:** Imperator Feodosiy

**10.** Qadimgi Rimda kambag‘allar taqdiri uchun kurashgan va o‘z vazifasini bajarayotganida 300 nafar sheriklari bilan o‘ldirilgan shaxsni aniqlang.

**Javob:** Tiberiy Girakx

### Zakovat savollari

1. Eramizdan avvalgi 4-asrda Yunoniston xo‘jaligi va madaniyatida tushkunlik sodir bo‘ldi. Uning 4 ta sababini ko‘rsating

**Javob:** 1. Shahar-davlatlar orasidagi o‘zaro urushlar. 2.Qullar sonining ko‘payib ketishi. 3.Dehqonlar va hunarmandlarning qashshoqlashuvi. 4.G‘alayonlarning ko‘payishi.

**2.**Bu odamlar haqida shunday deyilgan “Ularning barmoqlari o‘zun, uzuklar bilan to‘la. Ular barcha amr-u farmonlarning egasi”. Ular kim edi?

**Javob:**Xattotlar

**3.** Qadimgi Misrda bir shaxs bo‘lganki u haqida ko‘p afsonalar to‘qilgan hatto uning sharafiga Menfis shahrida maxsus ibodatxona ham qurilgan. Qizig‘i shundaki bu ibodatxonaga Misrliklar xudollarga sig‘ininish uchun emas, balki boshqa maqsad uchun kelishgan.

**Diqqat savol** bu shaxs kim va bu yerga Misrliklar nima maqsadda kelishgan?

**Javob:** Afsonaviy tabib Amenxotep, davolanish uchun.

**4.**Qadimgi Bobilda suvga cho‘ktirib o‘ldirish jazosi bo‘lib, bu jazo kimgarga nisbatan va qanday jinoyat uchun qo‘llanilgan.

**Javob;** Ayolga nisbatan, xiyonati uchun.

**5.“Politiya” asari kimga tegishli?**

**Javob:** Arastu

**6.** Ptolomey Isorter o‘z ilmiy markaziga qaysi shaharda asos soladi?

**Javob:** Aleksandriyada

**7.** Bu hududning umuman Yunon madaniyatiga aloqasi bo‘lmagan, Yunoniston bilan faqat Xaon, Tesprot, Maloss va Oresta kabi qabilalari joylashgan Axelay daryosi bog‘lab turgan.

**Savol:** Bu qaysi hudud edi?

**Javob:**Epir

**8.**Bu dengiz haqida so‘z borganda yunonlar undagi qattiq portanalar va chuqurlugi uchun “Evksin Ponti” deb atashgan edi.

**Savol:** qaysi dengiz haqidagi so‘z bormoqda va yuqoridagi iboraning ma’nosini toping ?

**Javob:** Qora dengiz, “ Mehmondo‘st dengiz”.

**9.**Qadimgi Yunonistonda musiqa, ayniqsa, xor qo‘sishchiligi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, vatanparvarlik ramzi darajasiga ko‘tarilgan.

**Savol:** Yunon musiqa san'atiga xorni kim kiritgan?

**Javob:** Olimpning shogirdi hisoblangan Talet.

**10.** Agar sen bu shaharni ko'rmagan bo'lsang to'nkasani! Ko'rgan bo'lsang-u, undan zavqlanmagan bo'lsang eshaksan! U yerdan o'z ixtiyorining bilan ketgan bo'lsang tuyasan!

**Savol:** Ushbu jumla Yunonistondagi qaysi shahar haqida?

**Javob:** Afina

### **Ha, yo'q javobli savollar:**

1. Hukmdor Amenxotep III o'zini qonunlar o'rnatuvchi deb ataydi!
2. "Uma" daraxtzori Maatga atab qurilgan!
3. Xatxor e'tiqodining markazi Deudena shahri bo'lgan!
4. 1345-1320-yillarda xett podshosi Suppilium bo'lgan!
5. Qadimda hozirgi Kipr "Kaptor" deb atalgan!
6. Motiga bu – uchiga hayvon yoki tosh paykon bog'lanadigan oddiy ketmonchadir.
7. Misrning old Osiyodagi tayanchi Sidon shahri bo'lgan.
8. Kedr daraxtlarining asosiy qismi chetdan olib kelinishi Finikiyaliklarning kemasozlik sohasi rivojlanishi tushib ketishiga sabab bo'lgan.
9. Misr ibodatxonalarini bezash an'anasini malika Xatshepsut boshlab bergen. Bu an'ana undan keying hukmdorlarning burchiga aylangan.
10. Daosizm ta'limotining asoschisi Lao-Szi bo'lgan.

**Javoblar:** 1. Ha 2.Yo'q 3.Ha 4.Yo'q 5. Ha 6.Yo'q 7. Ha 8.Yo'q 9.Yo'q 10.Ha

### **Tezkor savollar**

1. Ellin so'zini fanga kim kiritgan?

**Javob:** I.Droyzen

2. Ellinizm atamasini qachondan boshlab fanda uchratamiz?

**Javob:** XIX asr

3. Ellin davri necha tizimli davrga bo'lib o'rganiladi?

**Javob:** 3 davrga

4. Yunon-Sharq davlatchiligi, iqtisodi va madaniyatining gullab yashnashi ellin davrining qaysi davrida yo'z bergen?

**Javob:** ikkinchi davri

5.Ellin davlatlari ichida eng boy va bepoyon hududga ega bo‘lgani bu?

Javob: Ptolomeylar

6.Misrda ellin sulolasasi asoschisi kim bo‘lgan?

Javob: Ptolomey Lag

7.“Soter” so‘zi qanday manoni anglatadi?

Javob: qutqaruvchi

8.“Arximed vinti” qaysi davlatda keng foydalanilgan?

Javob: Ptolomeylar

9.Salavka kimning yordamida taxtni egallaydi?

Javob: Ptolomey

10.Salavkiylar davlatining aholisi asosan qaysi xo‘jalik turi bilan shug‘ullangan?

Javob: dehqonchgilik

11.Pergam davlati qachon mustaqil deb e’lon qilindi?

Javob: er.avv 240-yil

12..... podsholigi O‘rtayer dengizi aholisi uchun qishloq xo‘jaligi mahx sulotlari yetkazib beradigan markazga aylangan edi?

Javob: Pergam

13.Qaysi ellin davlati kutubxonasi Misrdagi Iskandariya kutubxonasidan keyingi o‘rinda turgan?

Javob: Pergam

14. Rodos notiqlik maktabiga kim asos slogan?

Javob: Esxin

15.Qaysi ellin shahrida ipakchilik va vinochilik rivojlangan?

Javob: Kos

16.Yunonlar qaysi Misr ma’budasini Demetra deb qabul qilgan?

Javob: Isida

17.“Kimda kim ehtiyoj bo‘lsa, u kishida ko‘p farog‘at bo‘ladi”, - degan fikr kimga tegishli?

Javob: Epikur

18.Qaysi shaharda mashhur tabiblar maktabi faoliyat ko‘rsatgan?

Javob: Kos

19.“O‘simliklar tarixi”, “O‘simliklar fiziologiyasi” asari mullifi kim?

Javob: Feofrast

20.Ptolomey I Sorter asos solgan ilmiy markaz nomi?

Javob: Museyon

### **Raqamlarga oid savollar**

1) Fermopil jangida Leonid forslarning aylanma tog‘ yo‘lini topganidan xabar topgach, qancha askarlardan tashqari barchaga chekinishni buyuradi?

Javob. 2000

2) Plateya jangida Mardoniy o‘ldirilgach, qancha fors qo‘shini Fessaliyaga olib boruvchi yo‘lga qochib ketishga muvaffaq bo‘ladi?

Javob.40.000

3) Mil.avv.480-yildagi Fermopil jangi oldidan yunon polislaringin 2-kongresiga nechta yunon polislari o‘z vakillarini jo‘natishadi?

Javob. 70

4) Kiprda mi.avv.478-yilda bo‘lib o‘tgan jangda Peleponnesning nechta harbiy kemasi ishtirok etadi?

Javob. 20

5) Kserks mil.avv. 480-yilda 60 ming, ba’zi manbalarda 120 ming kishilik qo‘shin bilan yurush boshlaydi. Bu qo‘shin tarkibida jami nechta kema mavjud edi?

Javob. 1000

### **Shaxslarga oid savollari**

1) Ioniya dengizi qirg‘oqlari yunon-fors urushlarigacha forslarga qaram edi. Bu hudud kim tomonidan bosib olingan?

Javob. Kir II

2) Makedoniyani Fors podsholigining vassali bo‘lishga majbur qilgan shaxs kim edi?

Javob. Mardoniy

3) Mil.avv. 491-yilda Spartadan quvilib Suzadan panoh topgan hamda Doro I va Kserksni yunonlarni bosib olishga da’vat qilgan Sparta podshosi kim edi?

Javob. Demaratus

4) Plateya jangida yunonlar forslar ustidan yorqin g‘alabaga erishadilar.Bu jangda yunon qo‘shinlari qo‘mondoni kim edi?

Javob. Pausanis

5) Forslar Fermopil darasidan o‘ta olmayotgan paytda forslarga aylanma tog‘ yo‘lini ko‘rsatgan sotqin kim edi?

Javob. Efialtes

### **Shaharlarga oid savollari**

1) Kserks sharqiy satrapliklar qo‘sini bosh bo‘lib g‘arbiy satrapliklar qo‘sini bilan birlashish uchun qaysi shaharga boradi?

Javob. Abidas

2) Fermopil jangi oldidan Afinadagi ayollar va bolalar qaysi shaharga ko‘chiriladi?

Javob. Trazen

3) Yunonlar Misrning qaysi shaharida joylashgan forslarning asosiy garnizonini mil.avv. 460-yillar atrofida 3 yil qamal qilishadi?

Javob. Menfis

4) Yunon-fors urushlari davomida qaysi shahar aholisi o‘z shahrini 2 marta tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi?

Javob. Afina

5) Doro I mashhur qo‘mondoni Artafen qaysi shahar satrapining o‘g‘li edi?

Javob. Sarol

### **Xronologiyaga oid savollari**

1) Kserks yunonlarga qarshi birinchi yurushiga nechanchi yillar davomida tayyorgarlik ko‘rdi?

Javob. 484-480

2) Femistoklning 200 ta harbiy kema qurish rejasining iqtisodiy asosi bo‘lgan Lavrion kumush konining yangi qatlami qachon topiladi?

Javob. 583

3) Mil.avv. 480-yilgi forslar hujumiga qarshi yunonlarning Korinfda bo‘lib o‘tgan kongresi qachon bo‘lib o‘tadi?

Javob. 481-71

4) Doro I qo‘sini eritreyaga mil.avv. 490-yilning qaysi sanasida bostirib kiradilar?

Javob. 12-sentyabr

5) Misrda qachon bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘alonga yunonlar 200 ta harbiy kemalarni yordam sifatida jo‘natishadi?

459 yilda

## **Hududlarga oid savollari**

1) Doro I ning yunonlarga qarshi yurushini kechiktirishiga sabab bo‘lgan 1-qo‘zg‘alon qaysi hududda bo‘lib o‘tadi?

Javob. Misr

2) Kserks yunonlarga qarshi 1-yurushi oldidan barcha qo‘sinni qaerda to‘playdi?

Javob. Kichik Osiyo

3) Fors qo‘sini Gellespont bo‘g‘ozidan o‘tib 3 oy davomida Fermopilgacha tinimsiz harakat qiladi va bu hududda dengiz floti bilan birlashish uchun to‘xtaydi. Bu hududning nomini toping?

Javob. Dorisk

4) Ioniya dengizi hududi hozirgi qaysi davlat hududiga to‘g‘ri keladi?

Javob. Turkiya

5) Misrdagi mil.avv. 450-yilgi qo‘zg‘alonga yordam uchun jo‘natilgan qo‘sini dastlab anchagini hududlarni egallaydi. Ammo keyinchalik muvaffaqiyatsizliklarga uchrab Misrdan tashqari yana qaysi hududni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi?

Javob. Kipr

## **Janglarga oid savollari**

1) Bu jang urushda yangi davrni boshlab berdi, chunki bu jang yunonlarning forslarga qarshi birinchi bosqinchilik urushi edi?

Javob. Erimidon jangi Panfeliyada bo‘lib o‘tadi

2) Qaysi jangdagi mag‘lubiyatdan so‘ng Afinada faqatgina barrikadachilar forslar bilan jang qilish uchun qoladi?

Javob. Fermopil

3) Doro I ning kuyovi Mardoniy qaysi jangda kimlar tomonidan o‘ldiriladi?

Javob. Plateya

4) Yunonlarning Misrda ko‘tarilgan mil.avv. 459-yilgi qo‘zg‘alonga yordam qo‘sini qaysi jangda forslar tomonidan butunlay tor-mor keltiriladi?

Javob. Menfis

5) Gerodot bu jangda yunonlarning 192 ta yo‘qotgan jangchisiga 6400 yo‘qotilgan jangchi to‘g‘ri kelganligini yozib qoldirgan.

Javob. Marafon

## Ekranda aks ettiriladigan savollar

Ekranda aks ettiriladigan savollar

Savol: Quyidagi shaxsn ni aniqlang?



Ekranda aks ettiriladigan savollar

Javob: Lui Genri Morgan




Ekranda aks ettiriladigan savollar

Savol: Quyidagi shaxsn ni aniqlang?



Ekranda aks ettiriladigan savollar

Javob: Maks Muller



Ekranda aks ettiriladigan savollar

Savol: Quyidagi tarixiy shaxsn ni aniqlang?



Ekranda aks ettiriladigan savollar

Javob: Hammurapi



**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Savol: Quyidagi tarixiy shaxsn ni aniqlang?




**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Javob: Ashoka




**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Savol: Quyidagi tarixiy shaxsn ni aniqlang?



**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Javob: Gomer



**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Savol: Quyidagi tarixiy shaxsn ni aniqlang?



**Ekranda aks ettiriladigan savollar**

Javob: Yaxmos I



Ekranda aks ettiriladigan savollar

Savol: Quyidagi tarixiy shaxsn ni aniqlang?



2

Ekranda aks ettiriladigan savollar

Javob: malika Xatshepsut



2

## Mantiqiy savollar

1. U shunday degan edi: “Men nimani eshitgan bo‘lsam shuni keyingi avlodga yetkazish burchim, lekin nimani eshitgan bo‘lsam hammasiga ko‘r- ko‘rona ishonaverish burchim emas”.

**Savol:** Tarixiy voqelikka tanqidiy fikr bildirgan ushbu shaxs kim?

**Javob:** Geradot

2. Saroy to‘rt qavatli qilib solingan, devorlarni nafis qilib suvalgan. Saroyning pastki binolari yog‘du chiqarib turadigan quduqlar bilan yoritilgan edi. Binolar ichida chiqindilarni, suvlarni tashqariga chiqarish uchun sopol qurilmalar bo‘lgan deyiladi.

**Savol:** Qaysi saroy haqida gap ketmoqda?

**Javob:** Knoss

3. Barchamizga ma’lum-u mashhur bo‘lgan Hindistondagi Toj-Mahal bilan Yunonistondagi Parfenon ibodatxonasining o‘xshashligini toping.

**Javob:** Bu ikki inshoot ham oq marmardan qurilgan edi.

4. Bu yerning tasviriy san’atida mavhum va o‘simgiliklar tasviri, hashamatli kiyangan kishilarni bir xildagi tantanali yurishlari, statiklik, shartlanganlik hukm surgan va shu jihat bilan boshqalardan ajralib turgan.

**Savol :** Qayerning tasviriy san’ati haqida so‘z bormoqda?

**Javob:** Miken

5. Yunon miflariga ko‘ra qaysi titan odam bolasiga uy-joy qurish, kema yasash, o‘qish yozishni, hisob-kitobni, dehqonchilik

hamda Olimpdan keltirilgan olovdan qanday foydalanishni o‘rgatgan?

**Javob:** Prometey

6. Bu joyning rangpar, zohil, yovvoyi lolalarga burkangan dalalalarida marhumlarning tarqoq yengil ruhlari kezib yuradi. Ular o‘zlarining ro‘schnolik ko‘rmay beziyo va beshukuh o‘tayotgan hayotlaridan zorlanadilar. Bu anduh maskandan hech kim qutulib chiqib keta olmaydi, zero sultanat qopqasini uch boshli ko‘ppak Serber qo‘riqlaydi.

**Savol:** So‘z qaysi joy haqida bormoqda?

**Javob:** Aid sultanati.

7. U shuday deb yozgan edi: “Biror–bir ahamiyatsiz tarixiy faktini tog‘ri va oddiygina bayon qilish uni turli uydirmalar bilan bezab-bejashdan ko‘ra xiyla yaxshiroqdir”

**Savol:** Ushbu fikrlar kimga tegishli?

**Javob:** Fukidid

8. Gomerning Iliada asarida keltirilgan faqat sut bilan kun kechiruvchi, “biya sog‘uvchilar” deya ta’rif berilgan eng adolatli va eng qashshoq qabila nomini toping.

**Javob:** Hippamolglar

9. Barchamizga ma’lum bo‘lgan egey dengizi orollarida yashovchi “Dengiz xalqlari” qaysi qabilalar ittifoqidan tashkil topgan edi ?

**Javob:** Axeylar, sardlik sherdonlar va tursha – etrusklar.

10. U odamlarni tenglashtirishga qarshi chiqib, ularni haqiqatni bilgan va bilmaganlarga ajratgan. U adolatga xilof bo‘lgan davlatni boshqarishning hamma shakllarini ya’ni monarxiya, tiraniya, aristokratiya va demokratiyani tanqid qilgan.

**Savol:** Ushbu jumlada fikr kim haqida ketmoqda?

**Javob:** Suqrot

## **“TO‘G‘RI TOP” O‘YINI**

“To‘g‘ri top” o‘yini uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo‘yicha kalit so‘zlarni boshlanishi yozib qo‘yadi, o‘quvchi esa tartibni o‘zgartirgan holda kalit so‘zlarning davomini yozib qo‘yadi.

Quyida biz o‘yinni umumiy-o‘rta ta’lim maktablarining 6 sinflarida tarix fanini o‘rganishda qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz.

### **1- plakat**

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...
3. Neolit bu...
4. Eniolit bu...
5. Bronza bu...
6. Temir davri bu...

### **2-Plakat**

1.Insoniyat tarixida ilk tosh davri bo‘lib er.avv. 1 mln.-12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi...

2.O‘rta tosh davri bo‘lib, er.avv. 12 – 7 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi...

3.Yangi tosh davri bo‘lib, er.avv. 6 – 4 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi...

4.Mis tosh davri bo‘lib, er.avv. 4 – 3 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi ...

5.Er.avv. 3 – 2 ming yilliklarni o‘z ichiga olib, matriarxatdan patriarchat ajralib chiqadi...

6.Er.avv. 1 – ming yillikdan boshlanib, bu davrda insoniyat tarixidagi 2 – mehnat taqsimoti ro‘y beradi...

### **1- Plakat**

- 1.Arxeologlar bu...
- 2.Etnograflar bu ...
- 3.Antropologlar bu ...
- 4.Numizmatlar bu...

### **2-Plakat**

1.Arxeologlar qadim zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qazishma ishlarini amalga oshiradilar.

2.Etnograflar bu qadimda odamlarning ko‘pgina udumlari, hozirda mavjud qabilalar va elatlarning qadimdan saqlab qolgan xo‘jalik va madaniy an’analarini o‘rganadilar.

3.Antropologlar bu qadimda odamlarning suyak qoldiqlarini tekshirib ularning tashqi qiyofasini tiklaydilar va rivojlanishini o‘rganadilar.

4.Numizmatlar bu qadimgi tangalarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchilardir.

## **1-Plakat**

1.Bobil bu...

2.Hammurapi bu ...

3.Novoxodonosor II bu...

4.Hammurapi qonunlari bu...

5.Shumerlar taqvimi bu ...

## **2-Plakat**

1.Bobil bu mill.avv 2 ming yillikda Mesopotamiya janubidagi eng yirik qudratli davlat.

2.Hammurapi bu mill.avv XVIII asrda Bobil podshosi u butun Mesopatamiyani yagona davlatga birlashtirishga muavaffaq bo‘ladi. Uning hukimronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylanadi.

3.Navoxudonosor II – Uning hukimronligi davrida Yangi Bobil o‘z ravnaqining cho‘qisiga erishadi. U yangi Bobil hukimdori: Bu hukimdon Misrni yangi Bobil podsholigiga qo‘sib oladi.

4.Hammurapi qonunlari bu Hammurapi chiqargan qonunlar. Uning qonunlari ilgari mavjud bo‘lgan barcha qonunlardan ustunlik qiladi. Uning qonunlari hamma uchun badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo‘lgan. Qonun matnlari davlatning barcha shaharlarida o‘rnatalgan tosh ustunlarga yozib qo‘yildi.

5.Shumerlar taqvimi. Shumerlar taqvimi yaratganlar. Quyosh yili davomiyligi Shumerliklar tomonidan 365 kun, oy yili esa 354 kun etib belgilangan.

## **1-Plakat**

- 1.Xettlar bu...
- 2.Urartu podsholigi...
- 3.Finikiya bu...
- 4.Falastin bu...
- 5.Mitanni bu...

## **2-Plakat**

1.Xettlar bu mill. avv. XVIII asrda Kichik Osiyo markazida hozirgi Turkiya hududida tashkil topgan shimollik xalqlar. Xattusa shahri shu davlatning poytaxti bo‘lgan.

2.Urartu podsholigi bu Kavkaz ortidagi, hozirgi Turkiya sharqiy qismida va Armaniston hududlarida joylashgan.

3.Finikiya bu.. O‘rta yer dengizining sharqiy qirg‘og‘ bo‘ylab hozirgi Livan hududida va Suriyaning bir qismida joylashgan davlat.

4.Falastin bu. mill.av XI asrda Falastin hududida Isroil podsholigi vujudga keldi; keyinchalik u Yahudiy podsholigi bilan birlashdi.

5.Mitanni bu hozirgi Suriya hududida vujudga kelgan. Mitanni podsholigi Xettlarning raqibiga aylandi . Urushlarda ular otliq qo‘sishlardan foydalanishgan.

## **1-plakat**

- 1.Kasta bu...
- 2.Indra bu...
- 3.Chandal bu...
- 4.Ganesha bu...
- 5.Braxma bu...

## **2-plakat**

1.Kasta bu Qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug‘ullanishiga qarab 4 guruhga ajratilgan edi. Bu tabaqalar kasta yoki varna deb atalgan.

2.Indira hindlarning mamaqaldiroq xudosi, u osmondagি suvni tutqunlikdan xalos etgan, yer yuzida qirg‘oqchilik poyoniga yetgan.

3.Chandal bu hindlarning tabaqalardan birortasiga ham mansub bulmaganlar “hazar qilinadiganlar” deyishgan. Chandallar kastaga mansub odamlar bilan birga bir uyda yashay olmasdi.

4.Ganesha bu hindlar sig‘inadigan xudolardan biri, boshi filnikiga o‘xshagan donishmandlik xudosi edi.

5.Braxma bu hindlarning etiqodicha tabaqalardan har birini oliy xudo o‘z jismining qaysidir bir qismidan dunyoga keltirgan ekan.

### **1-Plakat**

- 1.Sariq rumollilar bu...
- 2.Buyuk Xitoy devoir bu...
- 3.Qizil qoshlilar bu...
- 4.Sin Shixuandi bu...
- 5.Kompas bu...

### **2-Plakat**

1.Sariq ro‘mollilar qo‘zg‘aloni II asrdagi eng yirik isyon boldi .Qo‘zg‘alon butun mamlakatni qamrab oldi.

2. Buyuk Xitoy devori bu Sin Shixuandi o‘z davlatini ko‘chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoya qilish uchun shimoliy Xitoy buylab qurilgan mudofa devori. Devorni qurish ishlari dastlab mill.av IVAsrda boshlangan. Uning balandligi 6-10 metr, qalinligi 5-8metr, uzunligi 4000 km.

3.Qizil qoshlilar bu Xitoydagi qo‘zg‘alon. U milodning boshlarida qizil qoshlilar deb nomlangan .Chunki qo‘zg‘alon ko‘targanlar odamlarini chalkashtirib qo‘ymaslik uchun qoshlarini qizil ranga bo‘yab olgan edilar.

4.Sin Shixuandi mill.av 246-yilda Xitoyni o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan hukmdor. Bu nom Sining birinchi hukimdori degan manoni bildiradi. U hali tirikligidayoq o‘ziga atab maqbara qurishga farmon bergandi.

5.Kompas bu Xitoyliklarning eng ajoyib ixtiolaridan biri. U magnetlangan temirdan yasalgan uzun dastali katta qoshiqni eslatar edi. Bu moslamani kataklarga ajratilgan zarxallangan yog‘ochga o‘rnatishgan uning dastasi esa hamma vaqt janubni ko‘rsatgan.

## **1-Plakat**

- 1.Baqtriya bu...
- 2.Xorazm bu...
- 3.So‘g‘d bu...
- 4.Saklar bu...
- 5.Afrosiyob bu...

## **2-Plakat**

1.Baqtriya bu Surxandaryo vohasi Afg‘onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan davlat. Yunon rim mualliflari u yerlarni Baqtriana yoki Baqtriya eb ataganlar

2.Xorazm bu Amudaryoning quyi oqimida yashagan o‘troq dehqon elatlari xorazmliklar edi. Ularning yurti Yunon manbalarida Xorasmiya deyilgan.

3.So‘g‘d bu Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan Shug‘illanuvchi ko‘plab aholi Sug‘diylar Yunon yozma manbalarida bu hudud Sug‘diyona deb nomlangan.

4.Saklar bu O‘rta Osiyoning tog‘lik dasht va cho‘l yerlarida asosiy mashg‘uloti chорvachilik bo‘lgan xalqlar. Qadimgi yunon rim tarixchilarining yozishicha ular 3 guruhga bo‘lingan.

5.Afrosiyob bu hozirgi Samarqandning sharqiy chegarasi hududlarida mill.av VIII-VII asrlarda asos solingan qadimiy shahar xarobalaridir.

## **1-Plakat**

- 1.Zardusht bu...
- 2.Avesto bu...
- 3.Mitra bu...
- 4.Axriman bu...
- 5.Axuramazda bu...

## **2-Plakat**

1.Zardusht bu zardushtiylik dinining asoschisi Zardusht ismidan kelib chiqqan.U mill.av 1-mingyllik birinchi yarmida yashab o‘tgan tarixiy shaxs.

2.Avesto bu. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. U qat’iy belgilangan qonun- qoidalar degan manoni anglatadi. Uning ilk qismi mill.av IX-VIII asrlarda paydo bo‘lgan Zardusht vazlari matnlarining hammasi mill.av III asrda 21 ta kitobga jamlangan.

3.Mitra bu Zardushtiylikda quyosh va yorug‘lik xudosi.  
4.Axriman bu Zardushtiylikda yovuzlik va o‘lim xudosi.  
5.Axuramazda bu Zardushtiylikning ulug‘ va donishmandlik oiliy xudosi hisoblanadi.

### **1-Plakat**

- 1.Polislar bu...
- 2.Pedagog bu...
- 3.Doriylar bu...
- 4.Ilotlar bu...
- 5.Falanga bu...

### **2-Plakat**

1.Polislar bu Yunon shaharlarining ko‘pchiligi bir qancha manzilgohlar birlashishi yo‘li bilan tashkil topgan shahar davlatlar. Ular yunoncha polis ya’ni shahar deb atalgan.

2.Pedagog bu Yunonistonda ota-onalar o‘z bolalarini pedagogga (bolani yo‘lda kuzatib boruvchi ma’nosini anglatadi) haq to‘lab o‘qitishgan.

3.Doriylar bu Janubiy Yunonistonga (Lakonika) bostirib kirgan aholi (mill.av XIIasrda) Ular Sparta shahar –davlatiga asos soldilar

4.Ilotlar bu Spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi. Ular ham aslida yunonlar bo‘lib, ular bilan bir tilda so‘zlashgan Ilotlar spartaliklardan qattiq nafratlanar edi.

5.Falanga bu qo‘sishnlarning assosini og‘ir qurollangan askarlar–goplitlar tashkil etgan. Ular to‘rburchak shaklni yuzaga keltiruvchi bir biriga zikh joylashgan qatorlar bilan jang qilishgan. Bunday jangovar safga tizilish falanga deb atalgan.

### **1-Plakat**

- 1.Agora bu...
- 2.Drakont qonunlari bu...
- 3.Solon qonunlari bu...
- 4.Xalq majlisi bu...
- 5.Perikl islohotlari bu...

### **2-Plakat**

1.Agora bu Afina shahrida markaziy maydon bo‘lib, uning tevaragini turli–tuman imoratlar qurshab turgan bu maydon agora

deb nomlangan. U xalq yig‘ini maydoni bo‘lgan shahar aholisining ko‘pchiligini hunarmandlar va savdogarlar tashkil etgan.

2.Drakont qonunlari mill.av 621-y Drakont xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni yozdi va amalga kiritdi. Bu qonunlar shu qadar ayovsiz ediki afinaliklar ularga siyoh qolib qon bilan yozilgan deya tarif berilgan. Qonunlarni arzimas darajada buzganlik uchun ham o‘lim jazosi belgilangan.

3.Solon qonunlari bu Afina hukmdori Solon tomonidan o‘tkazilgan islohatlar mill.av 594-y u davlatni idora qilishning oldingi tizimini o‘zgartirdi. Avvalgi boshqaruv tizimi aristokratiya (aslzodalar hokimyati)ni demokratiya (xalq hokimyati)ga almashtiradi.

4.Xalq majlisi bu Afinada bo‘ladigan erkak jinsiga mansub barcha fuqarolar 20 yoshdan boshlab ishtirot etadigan, katta qismi badavlat bo‘lmagan hunarmandlar, savdogarlar va dehqonlardan iborat bo‘lgan majlis.

5.Perikl islohatlari bu mill.av 443-429-y 15 marotaba strateg lavozimiga saylangan. Perikl hukmronligi davrida Afina eng qudratli davlatga aylandi va davlatda demokratiya ravnaq topdi. Uning davrida qurilish avj oldi Parfenon iloha Afina ibodadxonasining tashabbuskori bo‘lgan.

## **1-Plakat**

1.Sohibjamol Yelina bu...

2.Axelles tovoni bu...

3.Teatr bu...

4.Fidiy bu...

5.Iliada bu...

## **2-Plakat**

1.Iliada poyemasida eng chiroyli ayol Sparta podshosining rafiqasi sohibjamol Yelena edi Troya podshosining o‘g‘li Paris Sparta podshosinikiga keladi va sohibjamol Yelenani Troyaga o‘g‘irlab ketadi.

2.Axilles tovoni bu Iliadaning bosh qahramoni Axilles o‘g‘lining mangu barhayot bo‘lishini istagan ona chaqalog‘ini Stiks daryosiga botirib oladi. Ayni paytda Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmasdan qolqdi. Janglardan birida Axilles

tovoniga tekkan o‘qdan halok bo‘lgan o‘sha kezlardan beri Axilles tovoni iborasi nozik joyni anglatadi.

3.Teatr bu bundan 2 yarim ming yil oldin Yunonistongda paydo bo‘ldi. Teatr so‘zi yunonchadan tomoshalar joyi, tomoshaxona degan manolarni anglatadi. Tomoshalar faqat bayramlarda uyishtirilgan.

4.Fidiy bu Yunon haykaltaroshlaridan biri. U Afinada Parfenon barpo etilishi va Akropolning qayta qurilishiga boshchilik qilgan. Uning mashhur asari Yer yuzidagi 7 mo‘jizaning biri hisoblangan olimpiyalik Zevs haykalidir.

5.Iliada bu Gomerning poemasi. Iliada yunonlar Troyani 9 yil qamal qiladi Iliada ana shu urushning oxirgi 10-yili haqida hikoya qiluvchi poema.

## **“KIM BILADI?” O‘YINI**

“Kim biladi?” o‘yinida o‘quvchilar ikki guruuhga bo‘linadi. Birinchi guruh a’zolari “O‘zbekiston tarixi” 8-sinf darsligidan biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot o‘qishadi. Ikkinchchi guruh a’zolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh a’zolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida ma’lumot o‘qishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun yutuqli kartochkalar berishadi. Bu o‘yinni xoxlagan mavzu yoki fanni o‘rganishda dars jaryonida o‘quvchilarni zeriktirishga yo‘l qo‘ymaslik, qiziqtirish maqsadida ham o‘tkazish mumkin. Masalan, 8-sinfda “O‘zbekiston tarixi” fanida foydalanish mumkin:

1- guruh:

U hukmdor Abulxayrxonning farzandi Shohbudoqsultonning o‘g‘li. Uning ismining ma’nosи “Kuch qudrat” demakdir. U XV asrning 80-yillarida o‘z davlatini tuzgan.

2- Guruh: Shayboniyxon.

1-guruh

Jonibek sultonning nabirasi shayx Muhammad Islomga ixlosi baland edi.U karvon yo‘llarini qayta jonlantirish,sardobalar karvonsaroylar qurish va taminlashga ahamiyat beradi.1572-yili Akbarshoh ho‘zuriga elchi yuboradi.

2-guruh

Abdullaxon II

1-guruh

Mang‘itlardan u markaziy hokimyatga bo‘ysinmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko‘chirtirib yuborish siyosatini tutdi. U yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida aralashuvlarni keskin kamaytiirishga erisha oldi. U kim?

2-guruh

Muhammad Rahimbiy.

1-guruh

Uning davrida davlat ichki va tashqi savdosi o'sdi. Amir Shohmurodning o'g'li, u Quronni Karimni yoddan bilgan. Uning huzurida tez-tez diniy va ilmiy munozaralar o'tkazib turilgan. Uning o'zi ham madrasa talabalariga maruzalar o'qigan. U kim?

2-guruh

Amir Haydar

1-guruh

Donyolbiy otalinqning o'g'li yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani tugatib darveshlik jamoasi tarafdoi, targ'ibotchisidan biriga aylandi. Xalq unga hurmat bilan "Amiri Mas'um" unvonini bergen. U kim?

2-guruh

Amir Shohmurod

1-guruh

Arab Muhammadxonning o'g'li u xonlikdagi barcha 32 qabilani 4 guruhga bo'ladi. 1646-yilda hozirgi Urganch shahriga va Xiva tarixshunoslik mактабига asos soldi. U "shajarayi turk" asari muallifi. Uning topshirig'i bilan "Dastur ul-amal" asari ham yozilgan. U kim?

2-guruh

Abulg'oziy Bahodirxon

1-guruh

Olimxonning ukasi, Farg'onalik tarixchi Muhammad Hakim uning hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri deb tavsiflagan. U ilm-fan, adabiyot rivojiga, madrasalarda o'qish, o'qitish ishlarini yaxshilashga, turli kasb-hunar maktablarining ochilishiga e'tibor bergen. Uning say-harakatlari natijasida XIX asr boshlariда Qo'qon ilm-fan markaziga aylandi. U kin?

2-guruh

Umarxon

O'yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o'yin ta'lim oluvchilarda fanga yoki o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Tarixga bo'lган ijodiy yondashuvni o'stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

## **ROL IJRO ETISH O‘YINLARI.**

**“Rolli o‘yin”** - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zları hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o‘z vazifalarini va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi. Bu o‘yin orqali tarix darslarida tarixiy shaxslarni shaxsiyatini (o‘zligini) mukammal bilishda foydalaniladi. Masalan, Tumaris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Shayboniyxon, Amir Olimxon, Nodira, Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon II va Dukchi Eshon kabi shaxslar bo‘lishi mumkin.

### **Men kimman?**

Bu metodda ixtiyoriy chiqqan o‘quvchining boshiga biror bir tarixiy shaxsni ismi yozilgan yoki tasviri tushirilgan toj kiydiriladi. Bunda o‘quvchi tojga kimning ismi yozilgani yoki tasviri tushirilganligini bilmaydi. Qolgan o‘quvchilar esa bu tarixiy

shaxs haqida ma'lumotlar berishadi. Tojni kiygan o'quvchi esa shu ma'lumotlardan foydalaniib ushbu shaxsning ismi ya'ni o'zining kimligini topishi kerak bo'ladi.

### **Shiroq**

1. O'qituvchi. U sak qabilasidan.
2. U mil avv II mingyillikda yashagan.
3. U haqidagi afsonalar birinchi marta yunon tarixchisi Poliyen asarida keltiriladi.
4. U Qizilqumda vafot etgan.
5. Doro I ga Qarshi ko'rashgan.
6. Poliyen asarida uning ismi siyrak deyiladi.

### **Spitamen**

1. U Sug'diyonada tug'ilgan.
2. Ismining ma'nosi "harakatchan", "muqaddas" demakdir.
3. U dushmaniga "Politimetda" pistirma qo'ygan.
4. 328 -yilda Samarqanddagi qo'zg'olonga boshhilik qiladi.
5. Aleksandrga qarshi kurashgan.
6. Qabila boshliqlari tomonidan o'ldirilgan.

### **Intervyu**

O'quvchilarga darsdan bir kun oldin mavzuga oid tarixiy shaxslar hayoti haqidagi o'rganib kelish topshirig'i beriladi. O'quvchilar tanlab olinadi. Ularning biri shu tarixiy shaxsni ikkinchisi jurnalist rollarini ijro etishadi.

**Jurnalist:** Sulton Jaloliddin siz dastlab qaysi hududlarga hokim bo'lgansiz.

**Jaloliddin Manguberdi:** G'azna, Bomiyon, Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarda hokimlik qilganman.

**Jurnalist:** 1221-yilda Parvon dashtida g'olib bo'lgansiz. Bunda qanday jang turidan foydalangansiz.

**Jaloliddin Manguberdi:** Men bu jangda askarlarimga otdan tushib jilovlarini bellariga bog'lashni va kamon bilan jang qilishni buyurganman. Bu jang usuli orqali g'alaba qildim.

**Jurnalist:** Parvon dashtida sizga yordam bergen lashkarboshilaringiz kimlar?

**Jaloliddin Manguberdi:** Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik, Muzaffar Malik.

O'yin shu tarzda davom etishi mumkin.

## **“BALIQ OVI” O‘YINI VA UNI O‘TKAZISH TARTIBI**

Bu o‘yin asosan umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lib bunda o‘qituvchi ma’lum bir mavzu yoki alohida bir davrni tugatganidan so‘ng uni mustahkamlash uchun o‘tkazishi mumkin. Unda o‘qituvchi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib har bir savolni kichik varaqchalarga yozadi. Uni buklab skrepka bilan mahkamlaydi va o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida uni maxsus qutiga yig‘ib oladi hamda savollarni aralashtirib yuboradi. O‘quvchilar magnit-qarmoq bilan bittadan savolni tortib, unga javob beradilar. Qarmoq - ipga boglangan magnit bo‘lib, qog‘ozga qistirilgan skrepka magnitga yopishib chiqadi agar bir nechta savol yopishib chiqsa undan birini tanlaydi. Shu tariqa guruhning barcha a’zolaridan galma - gal o‘zлari “ovlagan baliq” savollariga javob berish talab etiladi. Savol - javobning bu usuli o‘quvchilardagi qiziqishni oshiradi, tezkorlikga o‘rgatadi.

Quyida biz misol tariqasida umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilariga tarix fanining yakuni bo‘yicha 24 kishilik sinfga mo‘ljallangan savol-javoblarni taqdim etamiz.

| Nº | <b>6-sinf tarix fanining yakuni bo‘yicha to‘zilgan savollar</b>                           | <b>Javoblar</b>   |
|----|---|---|
| 1  | Yer yuzidagi dastlabki odamlar hayvonot dunyosidan qaysi xususiyatlari bilan farq qilgan? | Qaddi qomatini tik tutib yurgani, mehnat qurollarini yasash va ularni ishlatishni bilganlari bilan. |
| 2  | Qadimgi davrlardagi eng birinchi fuqarolar urushi qaysi davlatda sodir bo‘ldi?            | Rim imperiyasida, Sezar vafotidan keyin   |
| 3  | Qadimgi davrda insoniyatning fikrlash qobiliyatni va tafakkurining                        | Mehnat faoliyati va tevarak olam haqidagi to‘plangan bilimlar                                       |

|    |   |   |
|----|---|---|
|    | o‘zgarib borishiga nimalar sabab bo‘ldi?  | insonning fikrlash qibiliyati va tafakkurini o‘zgartirib bordi  |
| 4  | Eng qadimgi tasviriy san’atning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan jarayon? | Odamning o‘zini qurshab turgan tevarak olamni tushunishga intilishi   |
| 5  | Ilk qoyatosh rasmlari qaysi davrda paydo bo‘lgan?                                     | So‘nggi paleolit davrida paydo bo‘lgan  |
| 6  | Nega matriarxat davridan patriarchat davriga o‘tish jarayoni sodir bo‘ldi?            | Mehnat qurollari va xo‘jalik yuritish shakllari takomillashib urug‘ni yetarli mahsulot bilan ta’minalash erkak kishiga o‘ta boshladi va urug‘ga sardor bo‘ldi natijada insoniyat tarixida matriarxatdan patriarchatga o‘tish jarayoni boshlandi |
| 7  | Yunon miflarida nimalar haqida ma’lumot berilgan?                                     | Odamning yaratilishi, yer yuzida hayot va odamning paydo bo‘lishi, qahramonlar jasorati va dengiz sayohatllari haqida ma’lumotlar keltirilgan   |
| 8  | Temir kashf etilgan vaqtda dastlab undan nima maqsadda foydalilanilgan?               | Temirdan dastlab zebziynat buyumlari yasashda foydalilanilgan   |
| 9  | Qaysi davrga kelib muzlik poyoniga yetdi?   | Mezolit davri boshlanishi bilan   |
| 10 | Misrliklar nima uchun inson jasadini mumiyolashgan?                                   | Xudo Osiris qarshisida go‘zal qiyofada qad rostlash uchun inson   |

|    |   | jasadini mumiyolashgan   |
|----|---|--|
| 11 | Misrda piramidalar qurilishiga kimlar boshchilik qilgan?                              | Piramidalar qurilishiga kohinlar boshchilik qilgan   |
| 12 | Olimlar Misr tarixini nechta davrga bo'lishgan?                                       | 5 ta davrga bo'lishgan ular: ilk, qadimgi, o'rta, yangi va so'nggi davrlardir  |
| 13 | Jahon tarixida birinchi bo'lib muntazam qo'shin tuzgan hukmdor?                       | Shumer-akkad hukmdori Sargon I   |
| 14 | Tarixda qonunlar tuzgan birinchi hukmdor?   | Bobil podshosi Hammurapi   |
| 15 | Nima uchun dastlabki davrlarda buddaviylik dinida xudo bo'lмаган?                     | Chunki ular xudo inson azob- uqubatlarini yengillashtira olmaydi deb hisoblaganlari uchun dastlab ularda xudo bo'lмаган  |
| 16 | Qadimgi dunyo tarixida uchta o'g'irlangan narsalar haqida ma'lumot bering?            | 1-Ilon Gilgamishdan hayot gulini o'g'irlaydi, 2- Sparta podshosining xotini Yelena Troya podshosining o'g'li Paris tomonidan o'g'irlab ketiladi.3- Yunon -fors urushlarida yunon xudolari o'g'irlanadi |
| 17 | O'rta Osiyo tarixida antik davr boshlanishiga sabab bo'lgan omil nima?                | Yunon-makedon istilosи   |
| 18 | O'rta Osiyo hududlarida buddaviylik dinining tarqalishiga katta hissa qo'shgan hudud? | Surxon vohasidan buddaviylik dini O'rta Osiyonning boshqa hududlariga tarqalgan  |

|    |  |   |
|----|--|---|
| 19 | Elchi Chjan Syan O‘rtta Osiyoga sayohatidan so‘ng Xitoyga o‘zi bilan nimalar olib kelgan?          | Elchi Xitoyga Farg‘ona otlaridan biri va beda urug‘ini olib borgan  |
| 20 | Barcha xudolar ibodatxonasi nomini olgan ibodatxona?   | Panteon ibodatxonasi  |
| 21 | Rim imperiyasi qachon ikki qismga ajralib ketdi?   | Milodiy 395-yilda Rim imperiyasi sharqiy va g‘arbiy qismlarga ajralib ketdi   |
| 22 | Mis ko‘zgular O‘zbekistonning qaysi hududidan topilgan?  | Zamonbobo manzilgohidan topilgan  |
| 23 | Avestoning asosini nimalar tashkil etadi?  | Diniy marosimlar, madhiyalar va duolar Avestoning asosini tashkil etadi   |
| 24 | Rimlikar nima uchun olovni muqaddas hisoblashgan va har doim uning yonib turishini nazorat qilgan? | Ular olov yonib turar ekan hayot mavjuddir deb ishonishgan shuning uchun ham muqaddas olovni o‘chirmasdan saqlashgan. |

## “BLITS O‘YIN” TEXNOLOGIYASI

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv IV ming yillik oxiri, mil.avv XXXI-XXIX asrlar, mil.avv 1976-1947-yillar, mil.avv 1700 - XVI asr o‘rtalarigacha, mil.avv XVI asr o‘rtalari, mil.avv 1338-yil, mil.avv 1280-yil, 1938-1939- yillar, mil.avv 671-yil, mil.avv 525- yil.

**Tarixiy voqealar** – Ilk podsholik I-II umummisr sulolalarining boshqaruvi, Misrda II o‘tish davri, Yuqori va Quyi Misrda ikkita davlatning vujudga kelishi,

Yaxmos I giksoslarni tor-mor qildi, Misrning Ossuriya podshosi Asarxoddon tomonidan istilo qilinishi, Misr va Xett podsholigi o‘rtasida tinchlik shartnomasining imzolanishi, Amenemxet I hukmronlik yillari, Tanis shahrida Sheshonk I ning maqbarasi topildi, Mashhur fir‘avn Tutanxamon vafot etdi, Pulisiya yaqinida jang bo‘ldi.

| <b>Yil, sana</b>                    | <b>Sodir bo‘lgan voqeylik</b>  |
|-------------------------------------|--|
| Mil.avv IV ming yillik oxiri        | Yuqori va Quyi Misrda ikkita yirik davlat vujudga keldi              |
| Mil.avv XXXI-XXIX asrlar            | Ilk podsholik I-II umummisr sulolarining boshqaruvi                  |
| Mil.avv 1976-1947-yillar            | Amenemxet I hukmronlik yillari                                       |
| Mil.avv 1700-XVI asr o‘rtalarigacha | Misrda II o‘tish davri   |
| Mil.avv XVI asr o‘rtalari           | Yaxmos I giksoslarni tor-mor qildi                                   |
| Mil.avv 1338-yil                    | Mashhur fir‘avn Tutanxamon vafot etdi                                |
| Mil.avv 1280-yil                    | Misr va Xett podsholigi o‘rtasida tinchlik shartnomasining tuzilishi |
| 1938-1939-yillar                    | Tanis shahrida Sheshonk I ning maqbarasi topildi                     |
| Mil.avv 671-yil                     | Misrning Ossuriya podshosi Asarxoddon tomonidan istilo               |

|                 |                               |
|-----------------|-------------------------------|
|                 | qilinishi                     |
| Mil.avv 525-yil | Pulisiya yaqinida jang bo‘ldi |

### Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

**Sanalar** – mil.avv IV ming yillik, mil.avv X asr, mil.avv 2250 - yillar atrofi, mil.avv 2316-2261- yillar, mil.avv 2109-yil, mil.avv 1792-1750-yillar, mil.avv 1595-yil, mil.avv VII asr, mil.avv IV-III ming yillik, mil.avv 539-yil.

**Tarixiy voqealar** - III Ur sulolasi hukmronligining boshlanishi, Janubiy Mesopatamiyaga Xaldey qabilalarining kelib o‘rnashishi, Bobilda cassit sulolasi hukmronligining boshlanishi, Janubiy Mesopatamiyada Shumer manzilgohlarining paydo bo‘lishi, Shumer yozuvi paydo bo‘di, Hammurapining hukmronlik yillari, Ur sulolasining hokimiyatga kelishi, Yangi Bobil podsholigining tashkil topishi, Sargon I ning hukmronlik yillari, Bobilning KirII tomonidan egallanishi.

| Yil, sana                  | Sodir bo‘lgan voqeylek   |
|----------------------------|--|
| Mil.avv IVming yillik      | Janubiy Mesopatamiyada Shumer manzilgohlarining paydo bo‘lishi |
| Mil.avv Xasr               | Janubiy Mesopatamiyaga Xaldey qabilalarining kelib o‘rnashi    |
| Mil.avv 2250-yil atrofi    | Ur sulolasining hokimiyatga kelishi                            |
| Mil.avv 2316-2261-yillar   | Sargon I ning hukmronlik yillari                               |
| Mil.avv 2109-yil           | III Urs ulolasi hukmronligining boshlanishi                    |
| Mil.avv 1792-1750-yillar   | Hammurapining hukmronlik yillari                               |
| Mil.avv 1595-yil           | Bobilda cassit sulolasi hukmronligining boshlanishi            |
| Mil.avv VIIasr             | Yangi Bobil podsholigining tashkil topishi                     |
| Mil.avv IV-III ming yillik | Shumer yozuvi paydo bo‘ldi                                     |
| Mil.avv 539-yil            | Bobilning KirII tomonidan egallanishi                          |

## Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

**Sanalar** – mil.avv IX-VIII asrlar, mil.avv XI-IX asrlar, mil.avv II ming yillik, mil.avv 1450-yil, mil.avv VIII asr, mil.avv VIII-VI asrlar, mil.avv 594-yil, mil.avv VI-V asrlar, mil.avv 447-yil, mil.avv 430-404- yillar.

**Tarixiy voqealar** – Minoy sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi, “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining yaratilishi, Solonning Afina arxonti etib saylanishi, “Gomer davri she’riyati”, Pelopennos urushlari, Axey qabilalarining Kritning yetakchiligiga chek qo‘yishi, Sparta davlatining kuchaygan davri, Gomer yoki polis arafasi (“Qorong‘i asrlar”), Buyuk yunon kolonizatsiyasi davri, “Kalliy” sulh shartnomasining imzolanishi.

| <b>Yil, sana</b>        | <b>Sodir bo‘lgan voqeylik</b>                             |
|-------------------------|---|
| Mil.avv IX-VIII asrlar  | “Gomer davri she’riyati”                                  |
| Mil.avv XI-IX asrlar    | Gomer yoki polis arafasi<br>“Qorong‘i asrlar”             |
| Mil.avv II ming yillik  | Minoy sivilizatsiyasining paydo bo‘lishi                  |
| Mil.avv 1450-yil        | Axey qabilalarining Kritning yetakchiligiga chek qo‘yishi |
| Mil.avv VII asr         | “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining yaratilishi         |
| Mil.avv VIII-VI asrlar  | Buyuk yunon kolonizatsiyasi davri                         |
| Mil.avv 594-yil         | Solonning Afina arxonti etib saylanishi                   |
| Mil.avv VI-V asrlar     | Sparta davlatining kuchaygan davri                        |
| Mil.avv 447-yil         | “Kalliy” sulh shartnomasining imzolanishi                 |
| Mil.avv 430-404 -yillar | Pelopennos urushlari                                      |

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv 754-753-yillar, mil.avv VI asr, mil.avv 509-yil, mil.avv V asr o‘rtalari, mil.avv 287-yil, mil.avv 202-yil, mil.avv 138-132- yillar, mil.avv 74-71-yillar, milodiy II asr, milodiy III-V asrlar.

**Tarixiy voqealar** – Rimning Respublika deb e’lon qilinishi, Sitsiliyada qullar qo‘zg‘aloni, Rim imperiyasining “oltin” davri, Rim shahrining barpo qilinishi, Gortenziy qonuni, Rimning so‘nggi imperiya davri, Rim-Karfagen ilk savdo shartnomasining imzolanishi, Zama yaqnidagi jang, Spartak qo‘zg‘aloni, XII jadval qonunlarining qabul qilinishi.

| <b>Yil, sana</b>         | <b>Sodir bo‘lgan voqeylik</b>                      |
|--------------------------|--|
| Mil.avv 754-753 - yillar | Rim shahrining barpo qilinishi                     |
| Mil.avv VI asr           | Rim-Karfagen ilk savdo shartnomasining imzolanishi |
| Mil.avv 509-yil          | Rimning Respublika deb e’lon qilinishi             |
| Mil.avv V asr o‘rtalari  | XII jadval qonunlarining qabul qilinishi           |
| mil.avv 287-yil          | Gortenziy qonuni                                   |
| Mil.avv 202-yil          | Zama yaqnidagi jang                                |
| Mil.avv 138-132-yillar   | Sitsiliyada qullar qo‘zg‘oloni                     |
| Mil.avv 74-71 -yillar    | Spartak qo‘zg‘oloni                                |
| Milodiy II asr           | Rim imperiyasining “oltin” davri                   |
| Mil.avv III-V asrlar     | Rimning so‘nggi imperiya davri                     |

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv III ming yillik, mil.avv XVIII asr, mil.avv VII-VI asrlar, mil.avv III asr, mil.avv VI asr, mil.avv 327-yil, mil.avv III asr.

**Tarixiy voqealar** – Podsho Ashoka hukmronligi davri, Hind vodiysida katta shaharlar vujudga keldi, Makedoniyalik Aleksandrning Hindistonga yurishi, Hind daryosi vodiysi shaharlari zavolga yuz tutdi, Maurya davlati rivojlanishda yuksak taraqqiyotga erishdi, Hindistonda bir nechta shaharlar vujudga keldi, Buddaviylik dini.

| <b>Yil, sana</b>        | <b>Sodir bo‘lgan voqeylek</b>                            |
|-------------------------|--|
| Mil.avv III ming yillik | Hind vodiysida katta shaharlar vujudga keldi             |
| Mil.avv XVIII asr       | Hind daryosi vodiysi shaharlari zavolga yuz tutdi        |
| Mil.avv VII-VI asrlar   | Hindistonda bir nechta shaharlar vujudga keldi           |
| Mil.avv III asr         | Maurya davlati rivojlanishda yuksak taraqqiyotga erishdi |
| Mil.avv VI asr,         | Buddaviylik dini   |
| Mil.avv 327-yil         | Makedoniyalik Aleksandring Hindistonga yurishi           |
| Mil.avv III asr         | Podsho Ashoka hukmronligi davri                          |

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv III ming yillik oxiri, mil.avv VIII-VII asrlar, mil.avv VII-V asrlar, mil.avv 246-yil, mil.avv IV asr, mil.avv 206-yil, milodiy II asr, mil.avv I asr.

**Tarixiy voqealar** – Xitoyda ilk davlat paydo bo‘ldi, Sin Shixuandi davlatni birlashtirdi, “Ko‘p podsholiklar davri”, Chjou davlatining markaziy hokimiyati zaiflashdi, Xitoyda qog‘oz ixtiro qilindi, Buyuk Xitoy devori qurilishi boshlandi, Xan sulolasи hukmronligi boshlandi, “Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni.

| <b>Yil, sana</b>              | <b>Sodir bo‘lgan voqeylek</b>                    |
|-------------------------------|--|
| Mil.avv III ming yillik oxiri | Xitoyda ilk davlat paydo bo‘ldi                  |
| Mil.avv VIII-VII asrlar       | Chjou davlatining markaziy hokimiyati zaiflashdi |
| Mil.avv VII-V asrlar          | “Ko‘p podsholiklar davri”                        |
| Mil.avv 246-yil               | Sin Shixuandi davlatni birlashtirdi              |
| Mil.avv IV asr                | Buyuk Xitoy devori qurilishi boshlandi           |
| Mil.avv 206-yil               | Xan sulolasи hukmronligi boshlandi               |
| Milodiy II asr                | “Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni                  |
| Mil.avv I asr                 | Xitoyda qog‘oz ixtiro qilindi                    |

### **Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv 443-429-yillar, mil.avv V asr boshlari, mil.avv 490-yil, mil.avv 480-yil , mil.avv 449-yil, mil.avv 338-yil, mil.avv 776-yil, XIX asr oxiri.

**Tarixiy voqealar** – Troya shahri qoldiqlarining topilishi, Ilk olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilishi, Perilkning hukmronlik yillari, Yunon-Fors urushlarining yakunlanishi, Forslar Yunonistonga tahdid sola boshladi, Yunon va Makedonlar o‘rtasidagi jang, Marafon jangi, Fermopil jangi.

| <b>Yil, sana</b>       | <b>Sodir bo‘lgan voqeylek</b>             |
|------------------------|---|
| Mil.avv 443-429-yillar | Perilkning hukmronlik yillari             |
| Mil.avv V asr boshlari | Forslar Yunonistonga tahdid sola boshladi |
| Mil.avv 490-yil        | Marafon jangi                             |
| Mil.avv 480-yil        | Fermopil jangi                            |
| Mil.avv 449-yil        | Yunon-Fors urushlarining yakunlanishi     |
| Mil.avv 338-yil        | Yunon va Makedonlar o‘rtasidagi jang      |
| Mil.avv 776-yil        | Ilk olimpiya o‘yinlarining o‘tkazilishi   |
| XIX asr oxiri          | Troya shahri qoldiqlarining topilishi     |

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar** – mil.avv 49-yil, mil.avv 44-yil, mil.avv 29 -yil, milodiy II asr, milodiy 395-yil, milodiy III asr, milodiy 330-yil, milodiy 476-yil.

**Tarixiy voqealar** – Rimning kuch-qudrati zaiflashdi, G‘arbiy Rim imperiyasi quladi, Sezar hokimiyatni egalladi, Poytaxt Vizantiy shahriga ko‘chirildi, Rimning “oltin” asri, Sezar vafot etdi, Rim imperiyaga aylandi, Rim ikkiga bo‘lindi.

| <b>Yil, sana</b> | <b>Sodir bo‘lgan voqeylik</b>         |
|------------------|---------------------------------------|
| Mil.avv 49-yil   | Sezar hokimiyatni egalladi            |
| Mil.avv 44-yil   | Sezar vafot etdi                      |
| Mil.avv 29 -yil  | Rim imperiyaga aylandi                |
| Milodiy II asr   | Rimning “oltin” asri                  |
| Milodiy 395-yil  | Rim ikkiga bo‘lindi                   |
| Milodiy III asr  | Rimning kuch-qudrati zaiflashdi       |
| Milodiy 330-yil  | Poytaxt Vizantiy shahriga ko‘chirildi |
| Milodiy 476-yil  | G‘arbiy Rim imperiyasi quladi         |

## **“BELLASHUV” INTELLEKTUAL O‘YINI VA UNI O’TKAZISH TARTIBI**

“Bellashuv” intellektual o‘yini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini shuningdek umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib intellektual o‘yin kichik guruhlarga bo‘lingan holda yoki bir kursning barcha guruhlaridan 6 kishidan iborat jamoalar shakllantirilgan holda tashkil qilinadi va jami 100 ballik tizimda baholanadi.

### **I-shart. Muammo va yechim**

Bu shartda har bir guruh ishtirokchilariga 1 tadan savol beriladi. Savolni o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Savol javobini to‘liq ohib berish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Baholash maksimal 5 ballik tizimda baholanadi. Jami 5 ball.

### **II-shart. Qadimgi manbalar tahlili**

Bu shartda har bir guruhga qadimgi tarixiy belgilar bo‘yicha 3 tadan belgi namunalari izohlash uchun beriladi. Guruhlar kelishib belgilar ma’nosini topish uchun 2 daqiqa vaqt ajratiladi. Guruh a’zolaridan kelishgan holda vakillar chiqib belgilar mazmunini 2 daqiqa vaqt ichida izohlab berishadi. Har bir to‘liq bo‘lgan to‘g‘ri izoh uchun baholash maksimal 5 ballda baholanadi. Jami 15 ball.

### **III-shart. Atamalarga izoh bering**

Bu shartda har bir guruh ishtirokchilariga 10 tadan atamalar jadvali izoh uchun beriladi. Atamalar mazmunini aniqlash uchun 5 minut vaqt beriladi. Har bir guruh ishtirokchilari atamalar mazmunini yozma ravishda ekspertlar guruhiga vaqt tugashi bilan taqdim etadi. Atamalar mazmunini to‘liq ohib berish uchun 3 daqiqa vaqt ajratiladi. Baholash har bir to‘g‘ri javob uchun 3 ball bilan baholanadi. Jami 30 ball.

### **IV-shart. Sardorlar bellashuvi**

Bu shartda guruh sardorlari taklif etiladi. Har bir guruh sardoriga 10 ta tezkor savol beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 5 balldan baholanadi. Jami 50 ball.

“Bellashuv” intellektual o‘yinini oliy ta’lim muassasalarining “Tarix o‘qitish metodikasi” yo‘nalishlari birinchi

bosqich talabalariga “Jahon tarixi” (Qadimgi dunyo tarixi) fani bo‘yicha I smestrda o‘tiladigan “Qadimgi sharq tarixi” kursining yakunida o‘tkazish bo‘yicha taxminiy ko‘rinishi. Ushbu intellektual o‘yin taxminiy 3 ta akademik guruhlardan shakllantirilgan jamoalar o‘rtasida o‘tkazishga mo‘ljallangan.

### I-shart. Muammo va yechim

Ushbu shartni baholashda berilgan savollarga mantiqiy, tarixiy jarayonlarni bir-biri bilan bog‘lagan holda javob berilganligi inobatga olinadi. Ushbu shartga mo‘ljallangan taxminiy savollar.


1-guruhga savol: Qadimgi dunyo tarixida yozuvlar paydo bo‘lishi zaruriyatları va sabablari ?

2- guruhga savol: Qadimgi dunyo tarixida davlatchilik paydo bo‘lishi zaruriyatları va sabablari ?

3-guruhga savol: Qadimgi dunyo tarixida pulning paydo bo‘lishi zaruriyatları va sabablari ?

### II-shart. Qadimgi manbalar tahlili


Ushbu shartda Qadimgi Hind raqamlaridan, Xitoy iyerogliflaridan va Qadimgi Misr raqamlaridan na’munalar qog‘ozlarga yozilib yoki proyektorda ko‘rsatiladi.



Javob

| Qadimgi Hind raqami |      |       |
|---------------------|------|-------|
| Hind                | arab | zamon |
| -                   | 1    | 1     |
| ፩                   | 6    | 6     |
| ፪                   | 8    | 8     |


2-guruhga: Xitoy ierogliflari tahilli



Javob

Xitoy ierogliflari  
одам  
то'siq  
асир

3-guruhga: Qadimgi Misr raqamlari tahilli



Javob

Qadimgi Misr raqamlari  
10  
100  
1000  
10000

### III-shart. Atamalarga izoh bering

| T.r | 1-guruhga<br>mo'ljallangan<br>taxminiy atamalar | 2-guruhga<br>mo'ljallangan<br>taxminiy atamalar | 3-guruhga<br>mo'ljallangan<br>taxminiy atamalar |
|-----|---|---|---|
| 1   | <b>Pankus</b>                                   | <b>Nesu</b>                                     | <b>Kopt</b>                                     |
| 2   | <b>Tamkar</b>                                   | <b>Shaduf</b>                                   | <b>Kavi</b>                                     |
| 3   | <b>Vardum</b>                                   | <b>Limmu</b>                                    | <b>Sherki</b>                                   |
| 4   | <b>Ishshiakkum</b>                              | <b>Kudurru</b>                                  | <b>Aryoshayyona</b>                             |
| 5   | <b>Sukkalmax</b>                                | <b>En</b>                                       | <b>Lugal</b>                                    |
| 6   | <b>Bixikshu</b>                                 | <b>Kannibalizm</b>                              | <b>Sebek</b>                                    |
| 7   | <b>Van</b>                                      | <b>Kenataf</b>                                  | <b>Ji</b>                                       |
| 8   | <b>Separat</b>                                  | <b>Kanbed</b>                                   | <b>Aryapxata</b>                                |
| 9   | <b>Tuxkante</b>                                 | <b>Meret</b>                                    | <b>Otashkadalar</b>                             |
| 10  | <b>Darik</b>                                    | <b>Dafu</b>                                     | <b>Mushkenum</b>                                |

## **1-guruhgaga mo‘ljallangan taxminiy atamalar javoblari:**

- 1.Pankus – Qadimgi Xett davlatida qirol Kengashi.
- 2.Tamkar –Qadimgi Mesopotamiya davlatida savdo bilan shug‘ullanuvchi aholi.
- 3.Vardum – Qadimgi Bobil davlatida qullar tabaqasi.
- 4.Ishshiakkum – Qadimgi Ossuriya davlatida din ishlarini boshqaruvchi.
- 5.Sukkalmax - Qadimgi Eron davlatida elchi.
- 6.Bixikshu – Qadimgi Hindistonda gadoylar tabaqasi.
- 7.Van – Qadimgi Xitoyda hokim shunday nomlangan.
- 8.Sepat – Qadimgi Misrdagi ilk davlatlarni Misrliklar shunday atashgan.
- 9.Tuxkante – Qadimgi Xett davlatida taxt vorisi.
- 10.Darik - Qadimgi Eronda pul birligi.

## **2-guruhgaga mo‘ljallangan taxminiy atamalar javoblari:**

- 1.Nesu - Qadimgi Misrda hunarmandlar.
- 2.Shaduf – Qadimgi Misrda suvni tepaga ko‘taruvchi inshoot.
- 3.Limmu – Qadimgi Ossuriyada shahar xazinasini boshqaruvchi.
- 4.Kudurru – Qadimgi Bobil davlatida podshoh farmoni.
- 5.En – Qadimgi Mesopotamiyada ilk davlatlar.
- 6.Kannibalizm - Odamlarning odam go‘shtini yeyishi.
- 7.Kenataf - Mayitsiz qabr.
- 8.Kanbed - Qadimgi Misrda jamoa kengashi.
- 9.Meret- Qadimgi Misrda ishchilar tabaqasi.
- 10.Dafu-Qadimgi Xitoyda urug‘ boshlig‘i.

## **3-guruhgaga mo‘ljallangan taxminiy atamalar javoblari:**

- 1.Kopt– Qadimgi Misr aholisining til birligi.
- 2.Kavi – Avestoda mamlakatlar sardori.
- 3.Sherki - Qadimgi Bobilda ibodatxona quillari.
4. Aryoshayyona – O‘rta Osiyoda qadimgi viloyat uyushmasi.
- 5.Lugal – Qadimgi Mesopotamiyadagi shahar birlashmasining hukmdori.
- 6.Sebek – Qadimgi Misrdagi muqaddas timsoh.

7. Ji – Qadimgi Mesopotamiyadagi shaharlarining merosiy hokimlari.

8. Aryapxata – Qadimgi Hind astronomi.

9. Otashkadalar – Qadimgi Zardushtiylikda shahar va qishloqlardagi yangi ibodatxonalar.

10. Mushkenum - Qadimgi Bobilda jamoa bilan aloqasini uzgan erkin kishi.

#### **IV-shart. Sardorlar bellashuvi**

| T.r | <b>1-guruh sardoriga beriladigan taxminiy tezkor savollar</b>                        | <b>1-guruh sardoriga beriladigan tezkor savollar javobi</b> |
|-----|--|---|
| 1   | Qadimgi Gilgamish xalq eposi qaysi Mesopotamiya xalqining eposi hisoblanadi?         | Akkad   |
| 2   | Shumer-Akkadning Qaysi hukmdori nomi “shoh rostdir” deb tarjima qilinadi?            | Sargon 1  |
| 3   | Dastlabki piramida qaysi fir’avn uchun qurilgan?                                     | Joser   |
| 4   | Ossuriya hukmdori Ashshurbanapal kutubxonasida nechta sopol kitob bo‘lgan?           | 30 000  |
| 5   | Urartu poytaxti bo‘lgan Tushpa shahri qaysi ko‘l bo‘yida joylashgan edi?             | Van ko‘li bo‘yida   |
| 6   | Yangi Bobil podsholigiga qaysi sulola asos solgan?                                   | Xaldeylar sulolasи  |
| 7   | Misrliklar e’tiqodicha hukmdor fir’avn qaysi xudo jismidan paydo bo‘lgan?            | Xudo Ra   |
| 8   | Qadimgi Xett davlatini qulatgan dengiz xalqlari qaysi dengiz bo‘yida yashashgan edi? | Egey dengizi bo‘yida  |

|    |  |                                   |
|----|--|-----------------------------------|
| 9  | Qadimgi qaysi davlatda xalq majlisi “Pankus” nomi bilan atalgan?         | Qadimgi Xett davlatida            |
| 10 | Qadimgi Elam davlati nomi Bobil va Ossur tilida qanday manoni bildiradi? | “Mamlakat” degan manoni bildiradi |

#### IV-shart. Sardorlar bellashuvi

| T.r | <b>2-guruuh sardoriga beriladigan taxminiy tezkor savollar</b>   | <b>2-guruuh sardoriga beriladigan tezkor savollar javobi</b> |
|-----|--|--|
| 1   | Qadimgi Magadha davlatining poytaxti qaysi shahar bo‘lgan ?  | “Rajgir” shahri  |
| 2   | Qadimgi dunyo tarixida ”Kalliy sulhi” nomini olgan kelishuv qaysi davlatlar o‘rtasida imzolangan?                    | Eron va Yunoniston o‘rtasida                                 |
| 3   | Tarixchi Geradot Qadimgi Misrga qanday tarif bergen edi ?  | Nil tuhfasi  |
| 4   | Qadimgi Misrda qaysi fir’avn davrida Afrika qit’asi finikiyalik dengizchilar tomonidan kashf etiladi?                | Fir’avn Nexo II davrida                                      |
| 5   | Qadimgi Hindistonda kastachilik tizimi mavjud bo‘lib, aholining asosiy qismi qaysi kasta tarkibiga kirgan?           | Vayshiyalar tabaqasi   |
| 6   | Qadimgi Eron hukndori Doro I ning otasining ismini aytинг?   | Gishtasp   |
| 7   | Qadimgi dunyo tarixida “Yashil o‘rmon qo‘sishlari” nomi bilan ataluvchi qo‘zg’olon qaysi davlatda bo‘lib o’tgan edi? | Qadimgi Xitoyda  |
| 8   | Forslarning qaysi hukmdoriga “savdogar” atamasi qo‘sib   | Doro I   |

|    |  |                |
|----|--|----------------|
|    | ishlatilgan..?   |                |
| 9  | Fors mixxati necha belgidan iborat..?                              | 40 ta belgidan |
| 10 | Qadimgi Misrda urush xudosi qaysi hayvon timsolida tasvirlangan..? | Sher timsolida |

#### **IV-shart. Sardorlar bellashuvi**

| T.r | <b>3-guruh sardoriga beriladigan taxminiy tezkor savollar</b>                                  | <b>3-guruh sardoriga beriladigan tezkor savollar javobi</b> |
|-----|--|---|
| 1   | Biz bilgan shashka sport turi qaysi qadimgi sharq davlatida paydo bo‘lgan..?                   | Qadimgi Misrda  |
| 2   | Qadimgi Misrning qaysi vodiysida ilk sug‘orma dehqonchilik vujudga kelgan..?                   | Fayum vodiysida   |
| 3   | Qadimgi Mesopatamiya Mixxatini birinchi bor o‘qigan tadqiqotchi olim kim edi..?                | Roullson  |
| 4   | Qadimgi Urartu davlatida “Shohlar shohi” unvonini olgan hukmdor..?                             | Sardur I  |
| 5   | Qadimgi dunyo tarixida “Eshnuna va Shulga” qonunlari qaysi qadimgi sharq davlatiga tegishli..? | Mesopatamiya davlatiga                                      |
| 6   | Zardushtiylik dini Eron hududida qaysi Midiya hukmdori davrida rasmiy davlat diniga aylandi..? | Astiag davrida  |
| 7   | Qadimgi Ossuriya davlatining asosiy qismi hozirgi qaysi davlat hududiga to‘g‘ri keladi..?      | Iraq qisman Eron va Suriya                                  |
| 8   | Qadimgi Misrda bilim xudosi kim bo‘lgan..?   | Sia   |
| 9   | Qadimgi Shumer-Mixxat belgilari necha belgidan iborat..?                                       | 600 ta belgidan   |
| 10  | Qadimgi Misrliklar o‘z   | Sepat nomi bilan  |

|  |   |        |
|--|---|--------|
|  | davlatchalarini qanday nom bilan ataganlar..? | atagan |
|--|---|--------|

## MANTIQNI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK O'YINLAR

O'yinlar - bu, qisqa vaqtda amalga oshiriladigan tizimlashtirilgan guruhiy mashg'ulotlar bo'lib, ularni o'tkazish, oson va oldindan tayyorgarlik ko'rishga hojat unchilik yo'q, agarda, talab etilsa ham, sizning ko'p vaqtingizni band etmaydi. O'yinlar - ishtirokchilarni qiziqtirishga yaqindan ko'mak berib, mashg'ulot boshida, o'rtasida va oxirida o'tkazilishi tavsiya etiladi. Bunda, qulaylik va ishtirokchilar qoniqishlari asosida jamoa azolarini, bir-birlari bilan yaqindan tanishtirish, faollik darajasini bir me'yorda ushlab turish, oshirish, ziddiyatlari vaziyatlarni yumshatish, bartaraf etish va hattoki, mashg'ulot davrida taklif etilayotgan mavzu va metodika yuzasidan kiritilayotgan yangilik, ijobiy o'zgarishlarga tanqidiy munosabatda bo'lgan ishtirokchilarni faoliyatga jalgan etishda yaqindan ko'maklashadi.

Bu o'yin:

-guruhlar ishini jonlashtiradi;  
-kayfiyatni ko'taradi, samimiy kulgu uchun sharoit yaratadi;

-guruh ichidagi o'zaro munosabatni, umumiylar qiziqishlar, ehtiyojlar, qadr-qimmatlarni o'rnatishga ko'maklashadi. Har bir ishtirokchida hamkorlik faoliyati, bilim, malaka va ko'nikma, ayrim muammolarini yechishda qoniqish hosil etishlarini ta'minlaydi;

Ushbu oyindan ta'lim oluvchilar charchog'ini bosish, kayfiyatni ko'tarish va mavzularning keyingi bosqichiga diqqatni jalgan etishda qo'llaniladi.

### Mantiqiy (hazil savollar):

1. Kompot uchun qanday nota yetishmaydi? (sol -to'z)
2. G'alvirda suvni olib kelsa bo'ladi? (Ha, bo'ladi muz parchasini )

3. Avtomobil harakatlanganida qaysi g‘ildirak aylanmaydi? (g‘amlangan)
4. Turli xil tillarda kim so‘zlasha oladi? (aks-sado)
5. Qanday qanot hech qachon uchmaydi? (avtomobil qanoti)
6. Teng tomonli to‘g‘ri burchak (kvadrat)
7. Qanday rus so‘zi uch bo‘g‘indan iborat bo‘lib, ammo 33 ta harfni ifodalaydi? (alfavit)
8. Qog‘ozlardan quti (konvert)
9. Qarg‘a 7 yoshga kirgandni so‘ng nima bo‘ladi? (sakkiz yoshga kiradi)
10. Yopiq ko‘z bilan nimani ko‘rsa bo‘ladi (tushni)
11. Qaysi soat sutkada ikki marta bir xil vaqtini ko‘rsatadi? (to‘xtab qolgan soat)
12. Qancha tuxumni och qoringa yesa bo‘ladi? (bitta, qolgani to‘q qoringa)
13. Yomg‘ir yog‘ayotgan vaqtda qarg‘a qanday daraxtga qo‘nadi? (ho‘l daraxtga)
14. Qattiq tuxumni qancha daqiqa pishirsa bo‘ladi - ikki, uch, besh? (Hech qancha, u pishgan. Qattik tuxum pishirilgan tuxum)
15. Qayerda suv tikka holda turadi? (Stakanda)
16. Nima bo‘ladi agarda qizil shoyi ro‘molni 5 daqiqaga dengiz tubiga tushirsa? (Ho‘l bo‘ladi)
17. Qaysi kasallik bilan quruqlikda kasallanib bo‘lmaydi?(dengiz kasalligi bilan)
18. Qanday hollarda qo‘llar olmosh bo‘ladi? (yuvilganida)
19. Odam ko‘priidan ketayotganda oyog‘i ostida nima bo‘ladi? (etigining tagcharmi)
20. Ko‘pincha nimada yuriladi va hech qachon uchilmaydi? (Zinada)
21. Quyon o‘rmonga qancha o‘zoqlikda yugurishi mumkin? (O‘rmonni yarimigacha kiradi, uyog‘iga o‘rmondan chiqib ketadi)
22. 3 yildan keyin qarg‘aga nima bo‘ladi? (4 yoshga qarab ketadi)

23. Shoxda o‘tirgan qarg‘ani bezovta qilmasdan shoxni arralab olish uchun nima qilish kerak? (qarg‘a uchib ketishini kutish kerak)
24. Yetti aka-ukada bittadan singil. Jami qancha singil bor? (Bitta)
25. Olmaning yarmi nimaga o‘xshaydi? (ikkinchi yarimiga)
26. Uchta tuyaqush uchmoqda. Ovchi bittasini o‘ldirdi. Nechta tuyaqush qoldi? (Tuyaqushlar uchmaydi)
27. Qora mushuk qachon uyg‘a osonlikcha kirishi mumkin? (Uyning eshigi ochiqligida)
28. Agarda 5 ta mushuk 5 ta sichqonni 5 daqiqadan ushlasa, 1 ta sichqonni 1 ta mushuk qancha vaqtda ushlaydi? (5 daqiqada)
29. Qanday qilib otilgan tuxum sinmasdan 3 metrgacha uchib borishi mumkin? (Tuxumni 4 metrga uloqtirish kerak. Shunda oldingi 3 metrda sinmasdan uchadi)
30. Qaysi oy hamma oylardan qisqa? (May 3 ta harf)
31. Qaysi qo‘l bilan choyni aralashtirgan ma’qul? (Choyni qoshiq bilan aralashtirish ma’qul)
32. Qaysi uzelni yechib bo‘lmaydi? (Temir yo‘l)
33. Tuyaqush o‘zini qush deya oladimi? (Yo‘q, chunki u gapira olmaydi)
34. Yilda nechta oy 28 kunga ega? (Hamma oylar)
35. Kuchuk 10 metrlik arqonga bog‘langan edi, lekin 300 metr masofani bosib o‘tdi. Buni qanday amalga oshirdi? (Chunki, arqon hech nimaga bog‘lanmagan edi)
36. Qaysi jarayon yer yuzidagi barcha odamlarda bir vaqtda yuz beradi? (yoshi ulg‘ayishi)
37. Nima bitta burchakda qolgan holda butun dunyonи aylanib chiqish mumkin? (Pochta markasi)
38. Nimani tayyorlasa bo‘ladi, lekin yeb bo‘lmaydi? (Darslarni)

## XULOSA

Xullas, pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O‘quv materiallarni tanlash, qayta ishlab o‘quvchi yoki talabalarning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmni o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya - o‘z navbatida ta’lim-tarbiyaning obyektiv qonuniylatlari va diagnostik maqsadlari asosida o‘quv jarayonlari, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir, ya’ni fan va texnika yangiliklarini o‘zida mujassamlashtiradigan o‘quv jarayonidir.

Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o‘qitish jarayonida bilim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil, ijodiy ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O‘quv-tarbiya jaryonlarini ilmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garoovidir. Bunda barcha turdagи mashg‘ulotlar va mustaqil topshiriqlar ta’lim oluvchilarni o‘ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o‘rgatadi.

O‘qitishning asosiy tashkiliy shakli bo‘lgan dars va darsdan tashqari ishlar, ular qanday ko‘rinishda (an‘anaviy yoki noan‘anaviy darslar, sinfdan va maktabdan tashqari o‘quv-tarbiya tadbirlari, ma’ruza yoki amaliy mashg‘ulotlar) tashkil etilishidan qat’iy nazar, ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik va ma’naviy - ma’rifiy jihatdan to‘laqonli bajarilganidagina yuksak pedagogik samarani berishi mumkin. Bunda albatta, bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olingan holda tashkil qilinadigan mashg‘ulotlar ko‘zda tutiladi. Buning uchun esa ta’lim va tarbiya beruvchining mukammallik darajasidagi pedagogik mahorati va kasbiy salohiyati talab qilinadi.

Ta’lim va tarbiyaning sifat va samaradorligi juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lganligi uchun ham bu borada yagona va qudratli tavsiya yoki yo‘l-yo‘riq berib bo‘lmaydi. Hattoki,

zamonaviy pedagogik yoki axborat-kommunikatsiya texnologiyalaridan ham foydalana bilishning o‘ziga xos va o‘ziga mos mezonlari mavjudligini unutmaslik kerak.

Ayni davrda zamonaviy pedagogik texnologiya – tizimli yondashuvlar asosida o‘qitishning shakllarini qulaylashtirish, uning natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun zarur bo‘lgan inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro hamkorligini namoyish qiladi. Ta’lim maqsadlarini oydinlashtirish, o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul, metod va vositalarlarni xilma-xillash, ta’lim va tarbiya jarayonlari mazmunini chuqurlashtirish - bular hammasi ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish demakdir. Vaholanki, takomillashtirishning chegarasi, ya’ni oxiri yo‘q, deyiladi. Shunday bo‘lgach, pedagogik texnologiyalar ham, pedagogik mahorat ham sarhadsiz tushunchalardir. Bu borada qancha ko‘p izlanilsa va qanchalik tashabbuskorlik bo‘lsa shunchalik kamdekkuyulaveradi.

O‘qitishning eng oddiy va bosh haqiqati ham ana shundadir. O‘qituvchi(pedagog)larning faqat ana shu taxlitdagi faoliyati oxir-oqibatda yuksak ijtimoiy buyurtmaning bajarilishiga olib keladi.

Biz fikr yuritgan o‘yinli texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlarni olib borishni ham faol o‘qitish shakllaridan biri deb atash mumkin. Bunday darslar o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini, o‘quvchilarning faolligini va fanni yaxshi o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. O‘yinli texnologiyalar natijasida o‘quvchilarning bilish faoliyati rivojlanadi, o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishi oshadi va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Kuzatishlarimizdan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, o‘yinli texnologiyalaridan keng foydalanish ta’lim oluvchilar nutqidagi, o‘zligini ko‘rsata olish imkoniyatidagi bir qancha kamchiliklarni bartaraf etishda yaxshi samara beradi. Zero, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aynan yosh avlodni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatishdir.

## **O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMANI NAZARIY QISMINI TAYYORLASHDA FOYDALANILGAN ME’YORIY- HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T. “Sharq” 2001. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlari. 3-18 betlar.

2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T. “Sharq” 2001. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlari. 18-52 betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sон Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-сон.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 18 iyuldagи № 515 – sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 27 iyuldagи № PQ 3151 – sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida pedagogika yo‘nalishida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017 yil 9 avgustdagи №PQ 3183 – sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvarda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308 sonli Farmoni.

9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
  10. Azizxodjaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – Toshkent, 2006.
  11. Golish L.V., Xashimova D.P. Ta'lism jarayonida interfaol ta'lism uslublari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: TDIU, Iqtisodiyot. 2013.
  12. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limga pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
  13. Ishmuhamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - Toshkent: RBIMM, 2008.
  14. Ganieva M., Fayzullaev D. Kichik guruhlarda hamkorlikda ishslash pedagogik texnologiyalar to'plami. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.
  15. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
  16. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
- O'yinli texnologiyalarda foydalanilgan savollarni tuzishda quyidagi asosiy darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, elektron ta'lum resurslari hamda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanildi:**
1. Абдиев В.И. Қадимги Шарқ тарихи. Т., «Ўрта ва олий мактаб давлат нашриёти», 1964 й.
  2. Axmedshina F. Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish. Egey sivilizatsiyasi. Jizzax, 2004.
  3. Boynazarov F.A. Qadimgi dunyo tarixi. O'quv qo'llanma. T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2004
  4. Kosteskiy V.A. Tarix. Qadimgi dunyo. 6-sinf. O'qituvchi uchun metodik qo'llanma. T., 2003.
  5. Muxammedov X. Xorijiy mamlakatlar davlati tarixi va qadimgi dunyo tarixi. 1-qism. T., 1999.
  6. Qosimov E. Jahon tarixi. Qadimgi va o'rta asrlar davri.

Darslik. T.: TDPU., 2013.

7. Редер Д.Г., Черкасова Е.А. Қадимги дунё тарихи. Т., «Ўқитувчи», 1974 й.

8. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. – Т.: Navoiy Davlat pedagogika instituti, 2008.

9. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. Т.:“Fan va texnika nashriyoti”, 2009.

10. Rajabov R.R. Jahon tarixi. Toshkent. “Yangi asr avlodি”. nashriyoti 2015

11. Rajabov R.R. Ibtidoiy jamoa tarixi. Toshkent.“Fan va texnologiya” nashriyoti. 2013

### **Internet saytlari**

1. [1.htrr://www.gojdyepiyegus.gu/fogum/viyewfogum.rhkf=Z](http://www.gojdyepiyegus.gu/fogum/viyewfogum.rhkf=Z)

2. [2.http://hist1.narod.ru/DM/Ans.html](http://hist1.narod.ru/DM/Ans.html)

3. [3. httr://gu.wikiredia.ogg/wiki/Drevniy\\_mir](http://gu.wikiredia.ogg/wiki/Drevniy_mir)

4. [4. http://zipsites.ru/pravo/ancientl](http://zipsites.ru/pravo/ancientl)

5. [5. http://history.rin.ru/](http://history.rin.ru/)

6. [6. http://www.drevniymir.ru/](http://www.drevniymir.ru/)

7. [7. http://ancient.gerodot.ru/](http://ancient.gerodot.ru/)

8. [8. http://www.istorya.ru/](http://www.istorya.ru/)

9. [9. http://www.biografiya.ru/](http://www.biografiya.ru/)

## MUNDARIJA

|   |    |
|---|----|
| Kirish.....   | 3  |
| O‘yinli texnologiya tushunchasi, turlari, maqsad va vazifalari.....                             | 8  |
| O‘yinli texnologiyalarni amalga oshirishda guruhlarni shakllantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar..... | 31 |
| “Zakovat” intellektual o‘yini.....  | 33 |
| “To‘g‘ri top” o‘yini.....   | 52 |
| “Kim biladi?” o‘yini.....   | 60 |
| Rol ijro etish o‘yinlari.....   | 62 |
| “Baliq ovi” o‘yini va uni o‘tkazish tartibi .....   | 64 |
| “Blits o‘yin” texnologiyasi.....  | 68 |
| “Bellashuv” intellektual o‘yini va uni o‘tkazish tartibi.....                                   | 75 |
| Mantiqni rivojlantiruvchi psixologik o‘yinlar.....  | 82 |
| Xulosa.....   | 85 |
| Foydalanilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar ro‘yxati.....                           | 87 |



**TARIX FANINI O‘QITISHDA  
O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH  
(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)**

*O‘quv-uslubiy nashr*

*Nashriyot muharriri: Mirzayev Bekzod  
Musahhih: Rajabov Orifjon*

**Jizzax davlat pedagogika instituti  
Tahririy-nashriyot bo‘limida tahrir qilindi**  
Manzil: Jizzax, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4-uy  
Tel.: (998 72) 226 25 51 (99890) 643 29 64

Bosishga ruxsat etildi: 30.04.2018  
Qog‘oz bichimi: 60/84  
Times New Roman garniturası.  
Hisob-nashriyot tabog‘i: 5,3  
Shartli bosma tabog‘i: 5,6. Adadi 300 nusxa  
Bahosi kelishilgan narxda.

«NURLANT PRINT» MChJ  
matbaa bo‘limida chop etildi.  
Manzil: Cho‘pon-ota ko‘chasi, 28 A-uy.